

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

UDK 92(575.1):371.3

VAHABOVA SHAXNOZA MIRZAERGASHOVNA

**Chirchiq vodiysi turistik ob'ektlarini o`rganishning
geografik jihatlarini**

(Oliy ta'limda "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" fani misolida)

Mutaxassislik: 5A 110501- Geografiya o`qitish metodikasi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

"Himoyaga tavsiya etaman"

Magistratura bo'limi boshlig'i

_____ M.X.Esanov

«_____» iyun 2014 y.

"Geografiya va uni o`qitish metodikasi"

kafedrasini mudiri _____

g.f.n. dots. N.Alimqulov

Ilmiy rahbar _____

G.f.n. prof. P.Baratov

Toshkent – 2014

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Chirchiq vodiysi geokomplekslarining tavsifi va hududning turizm nuqtai nazaridan o`rganilish tarixi.....	6
1.Chirchiq vodiysining geografik o`rni, geologik va geomorfologik xususiyatlari.....	6
2.Chirchiq vodiysining iqlimi, ichki suvlari va organik dunyosi.....	10
3.Chirchiq vodiysini turizm nuqtai nazaridan o`rganilish bosqichlari.....	17
I bob yuzasidan xulosa.....	19
II bob Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlariga geografik tavsif.....	22
1.Geologik geomorfologik hamda gidrologik turdagi turistik ob'ektlarning tavsifi va tabiiy turistik ob'ektlarning geografik tarqalishi.....	22
2. Hududning botanik turdagi tabiiy turistik resurslari va tarixiy turistik ob'ektlari.....	31
3.Chirchiq vodiysi rekratsion turistik ob'ektlarning geografik tarqalish xususiyati	41
II bob yuzasidan xulosa.....	55
III bob.“Ўзбекистон табиий географияси ”фанини о`qitishda янги педагогик технологиялардан фойдаланиш.....	54
1.“O`zbekiston tabiiy georafiyasi fani”ni o`qitish samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o`rni.....	54
2.O`zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o`qitishda pedagogik foydalanish metodikasi	57
3. Chirchiq vodiysida turistik marshrutlarni uyushtirish va yo`nalishlarini tashkil etish metodikasi.....	66

III bob yuzasidan xulosa.....	76
-------------------------------	----

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Glossariy

Kirish.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini ko'lga kiritgandan keyin o'tgan tarixan qisqa vaqt ichida siyosiy, iktisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda katta islohatlar amalga oshirildi. Barcha islohotlar samaradorligi uning bosh omili - inson salohiyatiga, dunyo qarashi va xayotga munosabatiga, Vatanga muhabbati, milliy gurur va iftixor tuygularining yuksak darajada shakllanishiga bogliq ekanligi ma'lum bo'ldi. Uzluksiz ta'lim tizimiga oid davlat siyosatida muhim o'rin tutadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar yo'nalishlari belgilanib, ulardan biri, - "milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqni boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustivorlik asosida ta'limning barcha darajalari va bo'ginlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va aloqiy fazilatlarini rivojlantirish [1]¹" ekanligi belgilab qo'yilgan. Milliy istiqlol mafkurasi negizidagi umuminsoniy kamolot bosqichlarining muhim qismi bo'lgan milliy ma'naviy qadriyatlar aynan ana shu maqsadga xizmat qilishga qaratilgandir. Zero, o'zligini anglash orqali komillikka intilayotgan har bir kishi xayotga befark qaramaydi, o'z taqdirini millat va vatan taqdiridan ayricha tushunmaydi. Milliy gurur o'zi nima?. Unga "Mustaqillik nomli izohli ilmiy ommabop lugatda shunday ta'rif berilgan." Milliy gurur har bir millatning o'z-o'zini anglash natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuygu o'z ona zamin avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan madaniy, ma'naviy merosdan, o'z millatning jahon tsivilizatsiyasiga ko'shgan xissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatga obro'-z'tiboridan faxrlanish xissiyotidir ["¹]

Dunyo bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy ko'rsatgichlarida turizm, ma'murchilik, farovonlik, daromad keltiruvchi manbalardan biriga aylanib bo'lgan sohadir. Butunjahon turizm tashkiloti (VTO) turizmning uchta turini eng istiqbolli yo'nalish, deya e'tirof etdi.[3] Bular: Sarguzasht turizmi, dengiz va suv turizmi va ekoturizmidir. Ushbu uchala turizm turi ichida eng yosh va istiqbolli

¹ O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash **milliy** dasturi " Barkamol avlod O'zbekistonda kslajapining poydevori. **Shark k/b** 1998 Yil 45 bst
3. Mustakillik ilmiy - ommabop lugat-T; Shark, 1998, 143 bet

yo`nalishlardan biri ekoturizm bo`lib, u endi rivojlanib kelayotganligi, kam o`rganilganligi hamda irdoramaqligi bilan ajralib turadi. Bizning respublikamizda, xususan Toshkent viloyatida ham nafaqat ekoturizm, balki turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyat berilmoqda.[4] Bu borada bir qancha qonunlar ishlab chiqilgan holda, turizm davlat ahamiyatiga ega bo`lgan masalalar qatoriga olib chiqildi. Uni o`rganishga, hayotga tadbiq etishga e`tibor berilmoqda. Bu chora tadbirlarning barchasi biznesga qabul qilingan emas. chunki turizmni rivojlantirish, ayniqsa ekoturizmni iqtisodiy jihatdan eng unumdor sohaga aylantirish uchun respublikamizda, jumladan Toshkent viloyatida barcha shart-sharoitlar mavjud. Jumladan ekoturizmning asosi bo`lgan tabiiy ekoturistik resurslar turli ko`rinishlari mavjud-ki, ushbu hol turizmning bu turini Toshkent viloyat bo`yicha xalqaro masshtabga olib chiqish uchun munosib asos bo`la oladi. Ammo Toshkent viloyatida respublikamizning barcha hududlari kabi nafaqat ekoturizmning, balki turizmning barcha turlariga xos resurslar atroflicha o`rganilmagan bo`lib, u xususda sanoqli tadqiqotlarga olib borilgan xolos. Shu boisdan ushbu magistrlik dissertatsiyasining **maqsadi** – oliy o`quv yurtlarida Chirchiq vodiysi ²turistik ob`ektlarini o`rganish va uni o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur bo`ladi:

- Chirchiq vodiysining geokompleksini tavsiflash;
 - Chirchiq vodiysining turistik ob`ektlariga geografik tavsif berish;
 - Oliy o`quv yurtlarida Chirchiq vodiysi turistik ob`ektlarini yangi innovatsion texnologiyalar asosida o`qitish metodikasini ishlab chiqish.
- Tadqiqotning o`rganilganlik darajasi.** Chirchiq vodiysida turizmni rivojlantirish uchun uning ulkan tabiiy-ijtimoiy zahiralari mavjud. Bu haqda o`tgan asrning 70-yillaridayoq O.Yu.Poslavskaya, V.Ratsek, V.Kucheryavnyx, I.Xolmurodov, T.Xolmurodovlarning tadqiqodlari mavjud edi. Shunga

⁴ I.A.Karimov “Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz” (–T.: “O`zbekiston”, 1999),

qaramasdan Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlari ilmiy tarzda mufassal asoslanmagandir.

Tadqiqot ob'ekti. Chirchiq vodiysining turistik resurslari tarqalgan hududlari.

Tadqiqot predmeti. Chirchiq vodiysining turistik resurslari.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Tadqiqot ishida R.Raximbekov (2008), R.Amriddinova, B.Qo'chqorov, G. Raximov, B.Egamov, G.Abdusattorova (2008), R.Hayitboev, A.Sattorova (2008), M.A.Xoshimov, M.A. Zubaydullaeva (2009), B.Egamov (2009), O'.Yakubov, X.Vahobov (2012) va boshqa olimlarning tadqiqot olib borayotgan mavzuga doir ilmiy ishlaridan foydalandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Chirchiq vodiysiga xos turistik ob'ektlar geografiyasi va uni oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasi o'rganiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Chirchiq vodiysidagi turistik resurslaridan turizmni rivojlantirishda foydalaniladi. Aholining bandlik darajasini, salomatligini oshirish kabi aspektlarning rivojlanishi kutilmoqda.

Kutilayotgan natijalar va muammo echimlari. Dissertatsiya nihoyasida Chirchiq vodiysi geokomplekslarining tavsifi, hududga oid turistik ob'ektlarining ta'rif hamda oliy ta'lim muassasalarida Chirchiq vodiysi turistik ob'ektlarini o'rganishning tabiiy geografik jihatlari tadqiq etiladi va ularning echimi keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasining strukturaviy tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan matn, chizma, karta, jadvallar turkumidan iboratdir.

Tadqiqot ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, nazariy va ilmiy asoslari, ilmiy hamda amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Birinchi bobda, Chirchiq vodiysiga xos geokomplekslarga umumiy tavsif berilgan. Bunda Chirchiq vodiysining geografik o'рни, chegaralari, maydoni,

geologik va geomorfologik tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, biologik resurslari o`rganiladi.

Ikkinchi bobda, Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlariga geografik tavsif berilgan. Ushbu bobda geologik turistik ob'ektlar, geografik va tarixiy turistik ob'ektlar, rekratsion turistik ob'ektlar xususidagi ilmiy farazlar bayon etiladi.

Uchinchi bobda oliy ta'lim muassasalarida Chirchiq vodysi turistik ob'ektlarini o`rganishning tabiiy geografik jihatlarini tadqiq etiladi. Bu bobda Ozbekiston tabiiy geografiyasi fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish tadqiq etiladi.

Tadqiqotning tajriba sinov maydoni. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

I bob. Chirchiq vodiysi geokomplekslarining tavsifi va hududning turizm nuqtai nazaridan o`rganilish tarixi

1.Chirchiq vodiysining geografik o`mi, geologik va geomorfologik xususiyatlari

Chirchiq vodiysi tabiiy geografik jihatdan o`ziga xos xususiyat kasb etadi. U respublikamizning eng dastlabki quruqlikka aylangan hududlaridan biri sifatida litologik tuzilishining qadimgi tog jinslaridan tashkil topganligi, murakkab tektonik xususiyatlari bilan yondosh vodiylardan ajralib turadi. Ushbu xususiyat hududning neotektonik haraktlar tufayli hamon ko`tarilishda davom etayotganligi, natijasida xilma xil relief ko`rinishlari, iqlim xususiyatlari, ichki suvlari, organik dunyosining turli tarzda shakllanganligi bilan tavsiflanadi.

Chirchiq vodiysi respublikaning eng shimoli – sharqiy qismlarini egallab olgan bo`lib, u shimoli – sharqdan, janubi – garbga tomon 250 km masofaga cho`zilgan tor (eng tor joyi Turpoqbel va Beshtor dovoni oraligida bo`lib, 15 km.dan iborat), havzani tashkil etadi. Chirchiq vodiysi janubi – garbga tomon toboro pasaya borib , bu ko`rsatgich daryoning Sirdaryoga quyilish joyida 25 km.gacha etadi. Chirchiq vodiysi shamoli garbiy chekkasi O`zbekiston va Qozogiston respublikalarining davlat chegaralariga to`gri kelgan holda, Qorjontog, Ugom hamda Maydontol tizmasining suvayrigich qismlari orqali o`tadi. Hududning eng sharqiy qismlari esa Talas Olatovining suvayrigichlariga to`gri kelgan. [5]

Chirchiq vodiysining janubi-sharqiy chegaralari esa O`zbekiston va Qirgiziston davlat chegralari orqali Ko`ksuv va Piskom tizmalarining suvayrigich qismi bilan o`tadi. Bu chegara janubi garbda Katta Chimgan, Toshgaza, Qizilnura tog`larining suvayrigichlari orqali o`tib, Chirchiq ³vodiysini Ohangaron voydisidan ajratib turadi.ushbu chegrar janubi

⁵ Abdumalikov R. “Sayohat sahifalari” – T.: “Yosh gvardiya” 1970 yil

garbga borgan sari to'liqsimon rivojlangan tog oldi tekisliklari, adirlar bo'ylab o'tar ekan, vodiyning shimoli garbi chegaralari tomon yaqinlashib Chirchiq vodiysi tor (kengligi 10-15 km bo'lgan) vohaga aylanishiga sababchi bo'ladi. Shunday qilib Chirchiq vodiysi geologik tuzilishi va geomorfologik xususiyatlariga ko'ra cho'zinchoq shakl kasb etgan, goh torayib goh kengayib rivojlangan hududdan iboratdir. U ma'muriy jihatdan Toshkent viloyatining, Respublikamizning poytaxt shahri Toshkent shu hududda joylashgan bo'lib, undan tashqari bu erda Chirchiq Gazalkent kabi yirik shaharlar mavjud.

Chirchiq vodiysi respublikaning eng shimoli – sharqiy qismlarini egallab olgan bo'lib, u shimoli – sharqdan, janubi – garbga tomon 250 km masofaga cho'zilgan tor (eng tor joyi Turpoqbel va Beshtor dovoni oraligida bo'lib, 15 km.dan iborat), havzani tashkil etadi. Chirchiq vodiysi janubi – garbga tomon toboro pasaya borib , bu ko'rsatgich daryoning Sirdaryoga quyilish joyida 25 km.gacha etadi. Chirchiq vodiysi shimoli garbiy chekkasi O'zbekiston va Qozogiston respublikalarining davlat chegaralariga to'g'ri kelgan holda, Qorjontog, Ugom hamda Maydontol tizmasining suvayrigich qismlari orqali o'tadi. Hududning eng sharqiy qismlari esa Talas Olatovining suvayrigichlariga to'g'ri kelgan.[1]

Chirchiq vodiysining janubi-sharqiy chegaralari esa O'zbekiston va Qirgiziston davlat chegralari orqali Ko'ksuv va Piskom tizmalarining suvayrigich qismi bilan o'tadi. Bu chegara janubi garbda Katta Chimgan, Toshgaza, Qizilnura tog'larining suvayrigichlari orqali o'tib, Chirchiq vodiysini Ohangaron vodiysidan ajratib turadi.ushbu chegrar janubi garbga borgan sari to'liqsimon rivojlangan tog oldi tekisliklari, adirlar bo'ylab o'tar ekan, vodiyning shimoli garbi chegaralari tomon yaqinlashib Chirchiq vodiysi tor (kengligi 10-15 km bo'lgan) vohaga aylanishiga sababchi bo'ladi. Shunday qilib chirchiq vodiysi geologik tuzilishi va geomorfologik xususiyatlariga ko'ra cho'zinchoq shakl kasb etgan, goh torayib goh kengayib rivojlangan hududdan iboratdir. U ma'muriy jihatdan

Toshkent viloyatining, Respublikamizning poytaxt shahri Toshkent shu hududda joylashgan bo`lib, undan tashqari bu erda Chirchiq Gazalkent kabi yirik shaharlar mavjud.

Chirchiq vodiysining geologik-geomorfologik xususiyatlari, uning eng qadimgi davr yotqiziqlaridan tashkil topganligi hamda neotektonik xarakterli harakatlar tufayli ko`tarilayotganligida aks etadi. Shu boisdan ularni alohida tarzda o`rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Geologik tuzilishi. Chirchiq vodiysining geologik tuzilishi juda murakkab. Bu erdagi toglar paleozoy, mezozoy va kaynazoy eralari jinslaridan tarkib topgan. Toglarda granit, ohaktoshlar, qumtosh, slanets kabi otqindi jinslar, tog yon bagirlarida esa, paleogen, antropogen davrlarining shagal, qum, gil qatlamlari keng tarqalgan. Chirchiq vodiysini shimoli sharq va janub tomondan o`rab turuvchi toglar respublikamiz hududining eng dastlabki quruqlikka aylangan hududi sifatida aval kaledon, keyin gertsin, burmalanishlarida ko`tarilgan. So`ngra suv, shamol, harorat ta`sirida emirilgan. Hududni mezazoy erasida yangi dengiz suvi qoplab olgan. Albp burmalanishi davrida Chirchiq vodiysining er yuzasi juda ham o`zgargan, vertikal harakatlar ro`y bergan, hamma er quruqlikka aylangan. Ayrim joylarda uzilmalar, yoriqlar vujudga kelib, tog tizmalari, platolar, botiqlar paydo bo`lgan.

Chirchiq vodiysida tektonik harakatlar hamon davom etmoqda. Natijada er yuzasining qayta shakllanishi kuzatilmoqda. Bu hududda ro`y berib turadigan kuchli zilzilalar toglarning ko`tarilishi hamon davom ⁴etayotganligidan dalolat beradi. Binobarin, Chorbog soyliqi, Chotqol, Piskom, Ugom vodiylari ham tektonik harakatlar natijasida vujudga kelgan. Ularning yuza qismi qalinligi bir necha yuz metr bo`lgan to`rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan.[6]

Geomorfologik xususiyati. Chirchiq vodiysining er yuzasi bir muncha murakkab bo`lib, shimoli sharqdan janubi garbga tomon asta - sekin pasayib boradi. Hududning reliefi paleozoy erasidan boshlangan. Albp burmalanishi tufayli toglar

⁶ Dolimov N. "O`zbekiston tabiiy geografiyasi". Toshkent "Fan", 1987 yil.

katta ko'tarilib rel'efning hozirgi holati shakllana boshladi. Tog tizmalari Garbiy Tyanshanь tog tizmasining tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularni chuqur daryo vodiylari, keng soyliklar, tor kan'yonlar bir-birlaridan ajratib turadi.

Ugom tizmasi janubi garbdan shimoli- garbga tomon yo'nalgan. Ugom tog'larining o'rtacha balandligi 3000-3300 m. tog tepasida qirrali cho'qqilar mavjud bo'lsa, yon bagirlari oqar suvlar ta'sirida juda kuchli parchalanib ketgan.

Ugomning garbiy yon bagridan unga paralel holatda Qorjontog tizmasi ajralib chiqadi. U Ugom tizmasidan ancha past, o'rtacha balandligi 2000 m. ga yaqin.

Qorjontogning garbiy yon bagri past va tekisliklarga aylanib ketgan, sharqiy yon bagri esa tik. Piskom va chotqol daryolari havzasi o'rtasida Ugomga paralel ravishda Piskom tizmasi joylashgan. Piskom tizmasining o'rtacha balandligi 3000-3300 m. eng baland nuqtasi shimoli-sharqiy qismi Beshtor cho'qqisi 4299 m. Bu cho'qqi Chirchiq vodiysining eng baland nuqtasidir. Piskomning qoyalari qirrali, yon bagirlari esa suv, shamol ta'sirida kuchli emirilgan.

Chotqol va Ko'ksuv daryolari oraligida kambar, yon bagirlari tik, yurish qiyin bo'lgan Ko'ksuv tizmasi joylashgan. Uning o'rtacha balandligi 2000 m. dan ortiq.[2]

Piskomga paralel holatda Chotqol tizmasi yo'nalgan. Uning shimoliy yon bagri ancha tik, janubiy yon bagri esa Chotqol platosiga tutushib ketgan. Chotqolning respublikamiz hududiga dahil qismi bir oz pastroq. Katta Chimyon togi 3309 m. Kizilnura togi 3267 m. Chotqolning shimol tomonidagi Chimyonsoy go'zal manzarali joy bo'lib, unda turistik baza va sanatoriylar tashkil etilgan.

Tashqi kuchlar vodiylarda o'ziga xos rel'ef shakllarini – qayirlar, terassalar, yoyilma konuslari, daralarni vujudga keltirgan.

Chirchiq vodiysining togdan chiqib kengaygan qismida Toshkent vohasi bunyodga kelgan. Respublikamiz poytaxti bo'lgan Toshkent shahri vohada Chirchiqning uchinchi, to'rtinchi terassalarida joylashgan.

2.Chirchiq vodiysining iqlimi va ichki suvlari va organik dunyosi

Chirchiq vodiysining iqlim xususiyatlari, hududning ichki suvlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi dastlabki omillardan biridir. Umuman bu erda geokomplekslarning barchasi o'zaro uzviy bogliq bo'lgani kabi ular iqlim va ichki suvlarda ham o'z aksini topgan.

Iqlim xususiyatlari. Chirchiq vodiysining geografik o'rni hamda geomorfologik tuzilishi, hududning iqlim xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Vodiyning janubi – garbiy tekislik qismida Arktikadan keladigan sovuq, garbdan keladigan iliq, nam havo massalari ta'siri katta bo'ladi. Hududning shimoli sharqiy togli qismiga ham garbiy nam va iliq shamollar bemalol kirib kela oladi. Shu saabli hududning hududning janubi – garbiy tekislik qismlari quruqroq, shimoli – sharqiy toglik qismlari namroqdir. Chirchiq vodiysining yozi, ayniqsa tekislik qismida issiq va uzoq davom etadi. Iyul oyining o'rtacha harorati tekislikda 27°S , toglik qismda esa 20°S . Yozda havoning maksimal harorati hatto 44°S gacha ko'tarilishi mumkin.

Chirchiq vodiysida yoz fasli quyosh nuri ancha tik tushadi. Iyun oyida quyoshning gorizontdan balandligi Toshkentda 72° ga etadi.mart va oktyabr oylarida quyosh gorizontdan 49° baland ko'tariladi.shuning uchun rayon iqlimi ancha issiqdir.

Yilning o'rta hisobda 210 kuni sovuqsiz o'tadi, ya'ni havo harorati 0° dan yuqori bo'ladi. Har sm.kv. yuzaga yil davomida keladigan yalpi radiatsiya miqdori 150 kkal. ga teng.

Qish uncha qattiq emas. yanvar oyining o'rtacha harorati tekislikda -1° , toglik qismida -8° . Qishda ba'zan iliq kunlar bo'lib turadi. Sovuq havo massalari kelganda harorat -30° ga pasayadi. Qish va bahor fasllarida ob-havo tez-tez o'zgarib turadi.

Chirchiq vodiysida yoz bilan qish harorati oraidagi farq ham, kunduzgi va tungi harorat farqi ham ancha katta. Shu boisdan iqlimi keskin kontenental. Chirchiq vodiysida yogin miqdori juda notekis taqsimlangan. Shimoli-sharqqa, yaʼni tekisliklardan toqqa tomon yogin miqdori ortib boradi. Bunga asosiy sabab garbdan keluvchi nam havo massalarining tog'larga kelib toʻplanishidir. Hududning janubi garbida, Sirdaryo sohillarida bir yilda 330 mm. yogin tushsa, Toshkentda 367 mm., Piskom qishlogida 756 mm. yogin yogadi. Piskom vodiysining yuqori – shimoli - sharqiy qismida yillik yogin miqdori 800 mm.ga yaqinlashib qoladi. Yogin ayniqsa bahorda koʻp yogadi. Qishda va bahorda oʻrtacha kengliklarda havo massalari bilan, tropik havo massalari toʻqnashadigan chegara 35-40⁰ shimoliy kengliklar orasida joylashib, yoginning bu fasllarida koʻp yogishiga sabab boʻladi. Mart yogin koʻp yogadigan oydir. Yillik yogin miqdorining 20 % dan koʻprogi shu oyga toʻgʻri keladi. Iyul, avgust va sentyabr oylarida havo ayniqsa quruq boʻladi. Hududning katta qismida oʻrtacha yillik yogin miqdori 400 mm. boʻlib, shu joy harorati sharoitida 1000 mm. nam buglanishi mumkin.

Chirchiq vodiysida tog-vodiy, fyon va garmsel shamollari esadi. Tog – vodiy shamoli asosan yozda ob – havo oʻzgarib turgan davrda koʻp esadi. Bunda kunduzgi shamol vodiyydan yon bagir boʻylab yuqoriga, kechasi togdan vodiyyga tomon esadi.

Hududning iqlimi juda muloyim, inson yashash tarzi uchun qulay. Shu boisdan Chirchiq vodiysida dam oladigan joylar koʻp. Bu erdagi Chimyon, Burchumulla, Nanay, Humson va Oqtosh kabi xushmanzara, shifobaxsh, diltortar ob – havoli joylarda turizmni rivojlantirish mumkin.

Ichki suvlari. Chirchiq vodiysining ichki suvlari iqlim xususiyatlari bilan chambarchas bogliq ravishda yuzaga kelgandir. Vodiyning eng yirik daryosi Chirchiqdir. Chirchiq daryosi Sirdaryoning eng katta va sersuv irmogidir. Chirchiq asosan muzlik, qor va yomgir shuningdek er osti suvlaridan toʻyinadi. Talas Olatogi, Chotqol, Piskom, Qorjontog va Ugom toglaridan suv oladi.

Chotqol va Piskom daryolarining qo`shilgan joyi Chorbog suv omboridan boshlab Chirchiq deb ataladi.

Chirchiq daryosi yuqori oqimida tor o`zandan tez oqadi. Chorbogdan quyida vodiya 1 km.gacha, Chirchiq GES lari to`gon yaqinida 7 km.gacha kengayadi.

Chirchiq daryosida suv mart oyidan ko`paya boshlaydi, shundan daryo sentyabr oyiga qadar to`lib oqadi. Suvning eng ko`paygan vaqti mart – iyulga to`gri keladi. Oktyabr oyidan to fevralga qadar suvi kamayadi. Daryo suvinin g asosiy qismi kanallarga olinib, dalalarni sugorishga sarflanadi.[3]

Chirchiq daryosining yuqori qismida suv birmuncha tiniq. Loyqa miqdori uning o`rta oqimida har kub.m. suvda 270 grammdan, quyi oqimida 520 grammga qadar etadi. Chirchiq o`z havzasidagi har bir kv.km. joydan yiliga o`rta hisobda 170 t. turli jinslarni yuvib ketadi.

Chotqol daryosi Talas Olatogi bilan Chotqol tog tizmasi bir – birlariga qo`shilgan joydan boshlanadi. Uzunligi 223 km. uning quyi qismigina Chirchiq vodiysining O`zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi xolos.

Chotqol daryosi asosan qor qisman muz suvlaridan to`yinadi. Suvi mart oyidan boshlab ko`payadi. May va iyun oyida eng to`liq davri hisoblanadi. Daryo havzasining har bir kv.km. maydonidan yiliga 100 t. dan ortiqroq loyqa oqib ketadi.

Chorbog suv omboriga o`ng tarfdan Ko`ksuv daryosi quyiladi. Uning suvi nomiga munosib ravishda ko`m – ko`k begubor, musaffodir.

Piskom daryosi Talas olatogi bilan Piskom tizmasining tutashgan joyidan boshlanadi. Piskom ham chuqur tog vodiysidan oqib o`tadi.

Daryo qor va muz suvlaridan to`yinadi. Suvi martdan to iyun ga qadar ko`payadi. Daryo suv yigish maydonining har bir kv.km. yuzasidan yiliga 176 t. loyqa oqizib ketadi.

Ugom – Chirchiqning yirik irmoqlaridan biri. Uning uzunligi 70 km. daryo Qorjontog va Ugom tizmalari oraligidan oqib o`tadi. Suvi bahor va yozning birinchi yarmida ko`payib oqadi.

Chorbog darasining tor nuqtasida Chorbog to'g'oni va GES i qurildi. To'gondan yuqorida Chorbog suv ombori bunyod etildi. Bu O'zbekistondagi yirik inshootlardan biridir. Gidrouzul togonning balndligi 170 m.ga yaqin. Suv omboriningmaydoni 37 kv.km. Unda 2 milliard kub m. suv to'planadi. GES ning quvvati 600 ming kv. Chorvoq suv ombori Chirchiq, Ohangaron, Kanal vodiylaridagi 355 ming ga erning suv ta'minotini yaxshilaydi. 150 ming ga yangi erlarni sugorish imkonini beradi.

Chirchiq daryosi gidroenergiya olishda juda katta ahamiyatga ega. hozirning o'zidayoq Chirchiq – Bo'zsuv kaskadida 19 ta GES ishlab turibdi. Chirchiq vodiysi Toshkent – Mirzacho'l artezian havzasining shimoli – sharqiy qismlarini tashkil etadi. Bu erda 1000-1500 dan 3000 m. gacha bo'lgan chuqurlikda turli mineral moddalarga to'yingan bosimli er osti suvi mavjud. U Toshkent Mineral suvi, Chinobod, Botanika, Semashko, Turon sanatoriyasi kabi nuqtalarda o'z bosimi tufayli yuzaga ko'tariladi va aholi sogligini tiklashga xizmat qiladi.

Chirchiq vodiysining yuqori qismlarida silluriy, devon davriga xos ohaktosh, dolomit yotqiziqlari kuchli karstlanganligi uchun. Bu erlarda yirik karst buloqlari shakllangandir. Ularning ham ayrimlari (masalan, Xo'jakentdagi Chinor bulogi, Humson bulogi) inson organizmi uchun foydali bo'lgan turli tuzlarga to'yinganligi uchun minerallashgan suv sifatida maxsus qadoqlanib sotuvga chiqariladi.

Chirchiq vodiysining barcha tabiiy geografik komplekslari bilan uzviy bogliq holda uning tuproq qoplami, o'simliklar dunyosi va hayvonot olami shakllangandir. Biz ularni quyida alohida tarzda ko'rib chiqamiz.

Chirchiq vodiysining tuproq qoplami. Chirchiq vodiysining tuproq qoplami bir xil emas.chunki tuproqning hosil bo'lishi, joyning rel'efiga hamda er yuzasiga tarqalgan jinslarning tarkibiga, atmosfera yoginlarining miqdoriga, va havo haroratiga, hayvonot dunyosi va o'simliklariga bogliq holda shakllanadi. Natijada hududning tuproq qoplami janubi garbdagi tekisliklardan, shimoli – sharqda joylashgan tog'larga tomon o'zgarib boradi. Chirchiq daryosi vodiysi, hamda

uning Sirdaryoga quyilish joylarida madaniylashgan boʻz tuproqlar tarqalgan. Tuproq qoplami balandlikka qarab oʻzgaradi: dengiz sathidan 300-500 m. balandlikkacha boʻlgan joylarda och tusli boʻz tuproqlar tarqalgan. Och tusli boʻz tuproqlar tarkibida 1-1,5 % chirindi mavjud. Dengiz sathidan 600-1000 m. balandlikdagi oddiy boʻz tuproqlarda 1,5-2,5 % chirindi boʻladi. Boʻz tuproqlar tarqalgan erlar deyarli toʻliq sugoriladi, paxta, kanop, sabzavot va poliz ekinlari ekiladi. Boglar mavjud.

Chirchiq daryosining terrassalarida allyuvial tuproqlar rivojlangan. Bu erlar ham juda qadim davrlardan boshlab sugorib kelinadi. Shu boisdan ⁵oqar suv bilan oʻzi bilan birgalikda dalalarga juda koʻp loyqa hamda mineral eritmalar keltirib yotqizilgan, mahalliy va mineral oʻgitlar taʼsirida bu erdagi tuproq qoplami ham madaniylashgan.

Er osti suvlari er betiga yaqin boʻlgan daryo qayirlarida botqoq oʻtloqlar tarqalgan. Bunday joylarda zovurlar qazib, botqoqliklar quritilgan. Nishabi past, kichik botiq erlarda shoʻr bosgan tuproqlar ham uchraydi.

Hududning shimoli – sharqidagi, tog etaklarida va tog bagirlarida dengiz sathidan 1000-1600 m. balandlikka boʻlgan joylarda toʻq tusli boʻz tuproq turlari tarqalgan. Toʻq tusli boʻz tuproqlar tarkibida 3-4 % gacha chirindi mavjud. Shu boisdan u juda unumdor. Ammo hududning oz qismini tashkil etadi.

1600 m. dan balandda esa och tusli jigarrang tuproq turlari mavjud. Bunday balandlikda yogin-sochin miqdori yuqori, oʻsimliklar olasi boy. Shu boisdan chirindisi koʻp. Bu koʻrsatkich 4-6% gacha koʻtariladi va tuproqning unumdorligini oshiradi. [7]

Toglarning 1600-2500 m. gacha boʻlgan balandliklarida esa toʻq tusli jigarrang va oʻrmon qoʻngir tuproqlari shakllangan. Bunday tuproq turlari ayniqcha archazor oʻrmonlar mavjud joylarda tarkib topgan boʻlib, archazorlar ularning chirindi miqdorini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Shu boisdan ushbu

⁷Mirzaev M.A. Alieva I.T. “Turizim asoslari” TDIU bosmaxonasida bosilgan. T.: 2007

turkumdagi tuproqlar tarkibida 7-8 % hatto 10-12% gacha chirindi uchrashi mumkin.

Chirchiq vodiysining o`simliklari. Chirchiq vodiysining o`simliklari ham relief, iqlim hamda tuproq qoplamiga bogliq holda tekisliklardan toglarga tomon o`zgarib boradi.

Tekisliklar va daryo qayirlari bo`ylab jiyda, tol, terak, yulgun, qamish kabi o`simliklar formatsiyasidan iborat to`qayzorlar mavjud. Madaniy dehqonchilik qilish maqsadida haydab ekin ekiladigan maydonlar bo`ylab ⁶o`simliklar tabiiy holda o`sadigan dalalar kamayib ketgan yoki orollar tarzida saqlanib qolgan. O`shanday o`zlashtirilmagan erlarda efemerlar va boshhoqli o`simliklar ko`pchilikni tashkil etadi. Shuvoq, yantoq, qovun, qo`ziquloq, ayrim yirik tanali daraxtdan – tol, terak, qayrogoch, tut o`sadi.

Toglarda iqlim ancha nam va salqin bo`lganligi tufayli o`simliklar birmuncha qalin o`sadi. O`rmonlarda mevali daraxtlar, yovvoyi holda do`lana, ko`proq archa o`sadi. Archa o`rmonlari odatda 1400 -1600 m. balandlikdan 2200-2400 m. balandlikgacha bo`lgan maydonlarni qamrab olgandir. Archa o`rmonlarining er osti suvlarini boyitishda, tuproq qoalamini chirindiga to`ydirishda, havoni musaffo saqlashdagi o`rni juda muhimdir.

Yogingarchilik ko`p yogadigan baland toglarda subalp va alp o`tloqlari tarqalgan. Bunday joylar tabiiy yaylov o`rnini ham o`taydi. Chirchiq vodiysida o`simliklarni muhofaza qilish uchun ularni ko`paytirish va o`rmonlardan samarali foydalanish uchun Burchmulla va Chirchiq tog o`rmon xo`jaliklari barpo etilgan. Bu xo`jaliklarda tabiiy va meva daraxtzorlarni saqlash, yangi boglar tashkil etish borasida katta ishlar qilinmoqda. Chirchiq vodiysi o`simliklar qoplamining bu erda turizisni rivojlantirish uchun ham ahamiyati kattaroqdir.[8]

Chirchiq vodiysining hayvonot dunyosi Chirchiq vodiysining tabiiy sharoitiga ko`ra hayvonot olami ham turli joyda turlichadir. Ular balandlik mintaqalari bo`ylab tarqalgandir. Tekislik maydonlar kuchli tarzda o`zlashtirilgani uchun

⁸Mirzaev M.A. Alieva I.T. “Turizim asoslari” T.: 2007 y

hayvonlarning tabiiy holda yashashi uchun sharoit murakkablashgan. Shu boisdan aksariyat jonivorlar turi qirilib ketgandir. Daryo bo'ylaridagi to'qaylardagina jonivorlarning ayrim turlari saqlanib qolgan xolos. Ular chiyabo'ri, quyon, qushlardan o'rdak, goz, qirgovullar, ondatra uchraydi. Tog etaklari va adirlarda esa o'zlashtirilmagan hamda aholi turar joylari mavjud bo'lmagan joylarda tulki. Bo'ri, bo'rsiq, sudralib yuruvchilardan yuruvchilardan kaltakesak, turli ilonlar, kemiruvchilardan, dala sichqoni, kalamush tipratikan, turli hashoratlar, qushlardan ko'kqarga, kurkanak, bedana, to'rgay, qirgovul, zagizgon, chumchuq, mayna ko'p tarqalgan.

Tog mintaqasi jonivorlarining yashashi uchun birmuncha qulay. Chunki kam o'zlashtirilgan, aholi turar joylari ham adir mintaqasiga nisbatan siyrak joylashgan. Shu boisdan endemik turlar holati birmuncha yaxshi saqlangan. Bu erda bo'ri, tulki, yovvoyi cho'chqa, sariq ilon, charx ilon, ko'lvor ilon, toshbaqa, jayra, yovvoyi quyon, ko'rshapalak, bedana, kaklik, tasqara, ko'kqarga areallari keng tarqalgan.

Baland tog mintaqasida jonivorlarning tabiiy saqlanish holati yanada yaxshi. Shu boisdan ko'pgina endemik turlar saqlanib qolgan. Jumladan oq tirmoqli ayiq, arxar, to'ngiz, qor barsi, menzbira suguri, ko'rshapalaklar, yirtqich, o'laksaxo'r qushlar – tasqara, kalxat, lochin, shunqor tarqalgan. Chirchiq vodiysi organik dunyosini o'z holicha saqlab qolish uchun qo'riqxonalar tashkil etilgan. Bu tadbir Chirchiq vodiysi biologik xilma xillikning o'z holicha saqlanishiga xizmat qilmoqda.

3.Chirchiq vodiysini turizm nuqtai nazaridan o`rganilish bosqichlari.

Turizm asosini tashkil etuvchi sayohat tarzidagi tushunchalar insoniyat mavjud bo`lgan davrlardanoq shakllangan edi. Ammo aynan “turizm” termini bilan hamohang bo`lgan atamani anglatuvchi “Sayyohatnoma” tarzidagi yozma manba’lar va nihoyat ilmiy asarlarning shakllanish davri quyidagi bosqichlar asosida tashkil topdi.

Birichi bosqich. Bu bosqich miloddan avvalgi va milodning boshlanish davrlarini qamrab oladi. Bu davrda Chirchiq vodiysiga O`rta Osiyo bo`ylab sayohat qilgan Xitoylik olim Chjan – Tsyen (miloddan oldingi 138-126 yillari) Chirchiq vodiysida ham bo`lgan va Fargona vodiysidan o`tib ketgan.

629 yilda gayratli va matonatli Sayyoh Qashqar orqali O`rta Osiyoga kirib kelib, Tyanshanda, Ettisuvda, Issiqko`lda, Chuv vodiysida, Toshkent va Samarqandda bo`lgan. U ko`rgan erlarning tabiati, aholisi, shaharlari haqida juda muhim geografik asar yozib qoldirgan.

Ikkinchi bosqich. Bu davr o`rta asrlarni qamrab oladi. Ushbu bosqich ishtirokchilarining aksariyatini Maʼsudiy, Istaxriy, Ibn Rusta, Yoqut Sallam, Kazviniiy kabi arab sayyohlari, Narshaxiy, Jayxoniy, Abu Rayxon Beruniy, Nosir Xusrav, Xitoylik Chan – Chun, Villem Rubikvis, yozgan asarlarida sayyohatnomaga xos xususiyatlar mavjud. Ushbu asarlar orqali butun O`rta Osiyo yoki O`zbekiston hududi kabi Chirchiq vodiysining ham diqqatga sazovor, sayyolarning e`tiborini jalb qiluvchi xususiyatlari bor. Masalan muallifi noma’lum “Hudud ul Olam” asarida Chirchiq vodiysining diqqatga sazovor jihatlariga alohida to`xtalib o`tilgan.

Uchinchi bosqich. Bu bosqich XIV – XVI asrlarni qamrab oladi. Ushbu bosqich mobaynida ko`plab harbiy yurishlar shakllandi. Ular bilan bir vaqtda harbiy yurishlar shakllandi. Ular bilan bir vaqtda harbiy “Jangnoma” va boshqa “noma”lar insho etildi. Jumladan, Amir Temur darida Sharofiddin Ali-Yazdiy

Jahongirning barcha harbiy safarlarini “Jangnoma” tarzda yoritib berdi. Ulugbekning ov tafsilotlari bayon etilgan xotiralari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Shayboniyxonning jangovar tarixi bitilgan “Shayboniynoma”, Abdullaxon II ning jangavor yo`li bitilgan “Abdullanoma” asarlarida nafaqat fitiklarning tarixi, balki yurgan yo`llaridagi tabiatning ajoyib manzaralari, garoyib hodisalar ham xatga solingan. Jumladan ushbu asarlarda Chirchiq vodiysining diltortar go`shalari, qadamjolari, diqqatga sazavor nuqtalari to`grisida ham fikrlar mavjud.

To`rtinchi bosqich. Turizmning fan sifatida shakllanishi davri. O`tgan asrning 20-yillaridan 90 yillariga qadar bo`lgan vaqtni qamrab oladi.

XX asrning oxirlariga kelib, turizm bilan shugullanish mazmunini ko`proq sport turlari qamrab ola boshladi. Tog turizmi, alpinizm, velosipedda turlar uyuushtirish shular jumlasidandir.[5]

Bu davrda turizm mazmunini qisman ochib beruvchi ayrim adabiyotlar shakllandi. O.Yu.Poslavskaya “Garbiy Tyanshan toglarida” (1965), R.Abdumalikov “Sayohat sahifalari” (1971), V.Ratsek “O`rta Osiyoni kezkanda” (1972). Bu asrlar tunal ba`zan qisman Chirchiq vodiysining turistik resurslari xususida ma`lumotlar beradi.

Beshinchi bosqich. Turizmning jadal rivojlanish davri. U respublikamizmustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq shakllana bordi. Istiqlolning ilk davrlaridan boshlab turizmni rivojlantirish uchun turli davlat qarorlari ta`sis etilib, qator tadbirlar o`tkazila boshlandi. Natijada qator adabiyotlar jumladan M.A.Hoshimov, V.I. Kucheryavixlarning “Tabiatning nodir sayrgohlari” (1991) kitobi yuzaga keldi. Bu kitobda O`zbekistonning ko`pgina qismlari kabi Chirchiq vodiysiga ham uyushtirish mumkin bo`lgan sayyohatlar yo`nalishi to`grisida uchun yo`l ko`rsatgich sifatida berilgan.

M. Xoshimovning “Geligioznye i duchovnye pamyatniki Tsentralnaya Aziya” (2005) “speleoturizm” (2009), “O`zbekistonda ekologik turizm” (2009)

asarlarida ham Chirchiq vodiysining ayrim turistik resurslari xususida soʻz yuritiladi.

Respublikamizda turizmga boʻlgan munosabat uni ilmiy tarzda oʻrganish, masalasi 2000 yillardan yanada rivojlandi. Ayniqsa A.S.Soliev va M.R. Usmanovning “Turizm geografiyasi” (2005) asarida Chirchiq vodiysiga ham xos boʻlgan turistik jihatlar ochib berilgan.[9]

7

I bob yuzasidan xulosa

Chirchiq vodiysi respublikamizning eng dastlabki quruqlikka aylangan hududlaridan biri sifatida litologik tuzilishining qadimgi tog jinslaridan tashkil topganligi, murakkab tektonik xususiyatlari bilan yondosh vodiylardan ajralib turishi xaqida maʼlumotlar berilgan. Ushbu xususiyat hududning neotektonik haraktlar tufayli hamon koʻtarilishda davom etayotganligi, natijasida xilma xil relef koʻrinishlari, iqlim xususiyatlari, ichki suvlari, organik dunyosining turli tarzda shakllanganligi bilan tavsiflanadi.

Baland tog mintaqasida jorivorlarning tabiiy saqlanish holati yanada yaxshi ekanligi xaqidagi maʼlumotlar batafsil kiritilgan. Shu boisdan koʻpgina endemik turlar saqlanib qolgan. Jumladan oq tirnoqli ayiq, arxar, toʻngiz, qor barsi, menzbira suguri, koʻrshapalaklar, yirtqich, oʻlaksaxoʻr qushlar – tasqara, kalxat, lochin, shunqor tarqalgan. Chirchiq vodiysi organik dunyosini oʻz holicha saqlab qolish uchun qoʻriqxonalar tashkil etilgan. Bu tadbir Chirchiq vodiysi biologik xilma xillikning oʻz holicha saqlanishiga xizmat qilmoqda.

XX asrning oxirlariga kelib, turizm bilan shugullanish mazmunini koʻproq sport turlari qamrab olayotganligi xaqida maʼlumotlar umumlishtirilgan. Tog turizmi, alpinizm, velosipedda turlar uyushtirish shular jumlasidan ekanligi aytib oʻtilgan.

⁹ Nigmatov A. Shomurodova N. “Ekoturizm asoslari” T. “Turon iqboli” 2007 yil.

Turizm asosini tashkil etuvchi sayohat tarzidagi tushunchalar insoniyat mavjud bo'lgan davrlardanoq shakllanganligi ma'lum. Ammo aynan "turizm" termini bilan hamohang bo'lgan atamani anglatuvchi "Sayyohatnoma" tarzidagi yozma manbalar va nihoyat ilmiy asarlarning shakllanish davri bosqichlar asosida tashkil topganligi asoslab berilgan.

So'ngra esa turizm mazmunini qisman ochib beruvchi ayrim adabiyotlar ruyxati shakllanligi qayd etib o'tilgan. O.Yu.Poslavskaya "Garbiy Tyanshan tog'larida" (1965), R.Abdumalikov "Sayohat sahifalari" (1971), V.Ratsek "O'rta Osiyoni kechganda" (1972). Bu asarlarda to'liq, ba'zan qisman Chirchiq vodiysining turistik resurslari xususida ma'lumotlar berilganligi ma'lum.

Istiqlolning ilk davrlaridan boshlab turizmni rivojlantirish uchun turli davlat qarorlari ta'sis etilib, qator tadbirlar o'tkazila boshlanganligi haqida ma'lumot mavjud. Natijada qator adabiyotlar jumladan M.A.Hoshimov, V.I. Kucheryavixlarning "Tabiatning nodir sayrgohlari" (1991) kitobi yuzaga keldi. Bu kitobda O'zbekistonning ko'pgina qismlari kabi Chirchiq vodiysiga ham uyushtirish mumkin bo'lgan sayyohatlar yo'nalishi to'g'risida uchun yo'l ko'rsatgich sifatida berilgan.

M. Xoshimovning "Geligioznye i duxovnye pamyatniki Tsentral'naya Aziya" (2005) "Speleoturizm" (2009), "O'zbekistonda ekologik turizm" (2009) asarlarida ham Chirchiq vodiysining ayrim turistik resurslari xususida so'z yuritilgan va bir qator zaruriy ma'lumotlar mavjud.

1-bobda respublikamizda turizmga bo'lgan munosabat uni ilmiy tarzda o'rganish, masalasi 2000 yillardan yanada rivojlanganligi, ayniqsa A.S.Soliev va M.R. Usmanovning "Turizm geografiyasi" (2005) asarida Chirchiq vodiysiga ham xos bo'lgan turistik jihatlar ochib berilgan.

II bob Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlariga geografik tavsif

1. Geologik geomorfologik hamda gidrologik turdagi turistik ob'ektlarning tavsifi va tabiiy turistik ob'ektlarning geografik tarqalishi

Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlari genetik jihatdan turlichadir. Xususan bu erda geologik, geomorfologik, gidrologik, botanik, tarixiy, geografik hamda rekratsion turdagi turistik ob'ektlar mavjud. Ularni guruhlarga bo'lib o'rganiish turizimni rivojlantirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Chirchiq vodiysi eng qadimgi davrlardan oq respublikamizning dastlabki quruqlikka aylangan hududlaridan biri sifatida ma'lum. Shu boisdan uning murakkab geologik xususiyati va er yuzasining tuzilishidagi garoyib ko'rinishlar turizm shinavandalarining diqqat e'tiborini tortadi.

Geologik tuzilishi bilan bogliq holda shakllangan turistik resurslari. Chirchiq vodiysining togli qismi eng qadimgi davr yotqiziqlaridan tashkil topganligining o'ziyoq turistlar uchun juda qiziqarlidir. Chunki ular Ugom, Pskom, Chotqol toglari bo'ylab yuzaga chiqib yotadi. Ko'pchilik joylarda esa tektonik kuchlar tufayli juda ham kuchli burmalanib garoyib shakllar hosil bo'lgan. Bunday manzaralar sanoqli nuqtalardagina qaytarilsada turistlar uchun muhim ob'ektlar tarzida o'rganiladi. Masalan Chorvoq suv omborining chap sohil bo'ylab avtomobil yo'lining shundoq yonginasida silluriy davriga xos kulrang ohaktosh qatlamlarining kuchli burmalanganligini ko'ramiz. Ushbu burmalar ba'zan tektonik yoriqlar ta'sirida parchalanib ketgan bo'lsada, ularning umumiy ko'rinishi juda yaxshi saqlanib qolgan. Natijada tektonik kuchlar ta'sirida qatlamlarning egilib yuqoriga ko'tarilishini ta'minlaydi. Ammo quyidan ta'sir etayotgan kuch barcha nuqtalarda bir xil emas, balki turli nuqtalarga turlicha ta'sir etgandir. Shu boisdan ayrim joylar kamroq ba'zi joylar esa ko'proq ko'tarilgan.

Ma'lum darajada qattiq va yaxlit bo'lgan ohaktosh qatlamlari bu kuchga qarshilik ko'rsatar ekan, ikki orada siqilgan tog jinslari bir-birlariga qarshi yo'nalgan ikki kuch orasida siqilgan quyi qatlamlari, bosim katta bo'lgan joylardan bosim kichik bo'lgan nuqtalarga surilib burmalar hosil qilgan. Natijada ohaktosh qatlamlari jimjimador yo'nalishlar ko'rinishida egilib bukilgan. Ularning umumiy ko'rinishi chizmada aks etgani kabi juda murakkabdir. Demak burmalanish tabiatda yuz beradigan nodir holat tarziga kirgan va u turistlarning diqqat e'tiborini albatta jalb etadi. Burmalardan tashqari Chirchiq vodiysining yuqori qismlari bo'ylab qadimgi davrda yashagan dengiz jonivorlarining o'simliklarining qoldiqlari ham uchraydi. Ushbu paleontologik yodgorliklar qadimgi geologik davrda mavjud bo'lgan tabiat ko'rinishlari, uning organik dunyosi xususida, tasavvur hosil qilish uchun etarli asos bo'la oladi. Ayniqsa Toshkent shahridan 50 km shimoli sharqda topilgan dinazavr skleti turistlarda juda katta qiziqish uygotishi mumkin. Hozir bu noyob topilma Toshkent shahar Geologiya muzeyida saqlanmoqda. Yura davrida yashagan ushbu ikki oyoqli ulkan o'txo'r jonivorning barcha a'zolariga xos ustixonlari qariyib to'liq saqlanib qolgandir.[10]

Gidrogeologik turdagi turistik resurslari Bu turga er osti suvlari va u bilan bogliq holda shakllangan turistik resurslar mansubdir. O'zbekistondagi mavjud 8 ta (Zarafshon, Qizilqum, Qashqadaryo, Surxandaryo, Quyi Amudaryo, Ustyurt, Fargona) artezian havzalarining eng ahamiyatlisi Toshkent – Mirzacho'l artezian havzasidir. Ushbu havzaning shimoliy sharqiy qismi Chirchiq vodiysi hududiga to'g'ri keladi. Ushbu artezian ⁸havzasi janubda Fargona garbda Qizilqum va shimolda Aris havzalari bilan chegaradosh. Sharqda Chotqol – Qurama burmalanish oblasti tog oldilari bilan chegaralanadi. Havza o'ramidagi yura yotqiziqlarining qalinligi 100 – 150 m gacha bo'lib, tarqalishi cheklangan. Bo'r davri yotqiziqlari keng maydonni egallagan, va yupqa qatlamli ohaktoshlar qo'shilgan terrigen cho'qqilari (konglomerat va qumtosh)dan iborat. Bo'r davri

¹⁰ Nizomov N. "O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi" T.: 2008y

yotqiziqlarining qalinligi 50 – 100 m dan 900 m gacha oʻzgarib turadi. Paleogen yotqiziqlari juda keng tarqalgan, ular ohaktosh, qumtosh, konglomerat va gillar boʻlib, umumiy qalinligi 150 m gacha. Neogenning kontinental qatlami 300 m dan 1600 m gacha boʻlgan terrigen yotqiziqlaridan iborat. Toʻrtlamchi davr yotqiziqlari esa 600 m gacha boʻlgan allyuvial, prolyuvial, dellyuvial va ellyuvial choʻqindilardan tarkib topgan. Sinklinallarda vodiy va tog oldi qismlarida toʻrtlamchi davr yotqiziqlari bosimli chuchuk suvlar neogen, paleogen, quyi boʻr va yura tog tekisliklarida shoʻr suvlar, hamda yoqori boʻr yotqiziqlarida chuchuk mineral termal suvlar tarqalgan. Yuqori boʻr qatlamlaridagi mineral termal suvlar tarqalgan. Yuqori boʻr qatlamlaridagi mineral suvlarning yoshi 0.2 dan 3.5 mln yilgacha, “yosh” suvlar (0.2 mln yilgacha). Toshkent artezian havzasining shimoliy va sharqiy qismida boʻlib, janubi – garb tomonga ularning yoshi 2-3.5 mln. yilgacha oshib boradi. Ushbu suv Toshkent shahrining oʻzida, (Chinobod, **Semashko**) Zangiota tumanida (Tash.min suvi) er yuzasiga oʻz bosimi bilan chiqadi. Bu erda tashkil etilgan sanatoriylar katta miqyosdagi turistik ahamiyatga ega.

Geomorfologik turistik ob’ektlari. Ushbu turga mansub turistik ob’ektlar sirasiga Chirchiq vodiysi relʼefining garoyib koʻrinishlari, tor tangi – konʼonlar, karst gorlari kabi oʻzining tuzilishi, qaytarilmas goʻzalligi balki diqqat eʼtiborni tortadigan koʻrinishlar mansubdir.

Tangilar. Tangilarning ilmiy nomlanishi kanʼondir. Bu xildagi relʼef formasi Chirchiq vodiysining yuqori qimslari Ugom, Pskom, Chotqol daryolarining irmoqlarida kuzatiladi. Tangilar oʻzining garoyib koʻrinishi, diltortarligi bilan katta turizm ahamiyatiga ham egadir. Tangilar Chirchiq vodiysining yuqori qismi ayniqsa Koʻksuv darasida kuchli rivojlangan boʻlib, bu erda Koʻksuv silluriy, devon, davriga xos ohaktoshlari yuvib oʻziga tor yoʻlak ochgan. Ushbu daraning kengligi ayrim joylarda 5-10 m boʻlgani holda chuqurligi 100 m. dan ham oshib ketadi. Tangilarning tagidan doimo suv oqadi. Shu boisdan tangilar boʻylab yurish nihoyatda murakkab. Ammo yoz fasllari oqim biroz pasaygach tangilar boʻylab

turistik mashrutlar uyushtirish orqali, qiziqarli sayohatlar qilish mumkin. Tangilar bo`ylab yurilganda ayrim joylarda uning tor va egri bugriligidan ko`k gumbazi ko`rinmasdan qoladi. Tepada esa yuqoridan qulab tushgan xarsang palaxsalari osilib turgan holda turistik marshrutning ekzotikligini oshiradi.

Gorlari. Chirchiq vodiysining speleoturizmni rivojlantirish uchun ham etarlicha tabiiy resurslari mavjud. Ulardan dastlab kismi bu erda siluriy, devon, karbon davriga xos qadimgi karbonotli jins (ohaktosh, dolomit, mergel) larning kuchli karstlashganligi tufayli yuzaga kelgandir. Ular ayniqsa Pskom va Chotqol vodiylarida keng tarqalgandir. Quyida ulardan ayrimlariga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Xumson gori. Xumson qishlogining shimoliy qismida, Kristall pansionati hududida joylashgan bo`lib, Ugom daryosidan 20 m. balandlikda hosil bo`lgandir. Uning umumiy uzunligi 30,2 m. bo`lib asosan tirsaksimon bukilgan yo`lakdan tashkil topgan. Ushbu gor Chirchiq vodiysining o`zga gorlaridan birmuncha farq qilib, karstlanuvchi karbonatli jinslarda emas, balki konglomerat qatlamlarini tashkil etuvchi qayroqtosh, qum, shagal uyumlarini birlashtirib turuvchi ohaktoshli tsement birikmalarini eritib, yuvib olib chiqib ketishi tufayli shakllangandir.

Po`stinlik gori. Ushbu gor Ugom daryosining o`ng irmogi bo`lgan Po`stinliksoyning tarmogi Marazisoyda joylashgan bo`lib, uzunligi 40,5 m. Unga kirish kengligi 20 m., baldligi 7 m bo`lgan ayvondan boshlanadi. Gorning ichkari qismi juda garoyib manzaralar kasb etadi. Ayniqsa bu erda shakllangan stalaktitlar, odatdagidek gor shiftidan quyiga tomon osilib turmasdan, aksincha gorizental holatda, bir – birlariga suyangan holda shakllangandir. Gor ichida er osti daryosi bo`lib, u karst bo`shligiga quyilgan holda ko`zdan goyib bo`ladi.

Dinan gori – Pskom daryosining hududida bo`lib, u daryoning o`ng irmogi Novalisoyda joylashgandir. Gorning uzunligi 35 m. Gor kengligi 20 m., balandligi 5 m. bo`lgan ulkan er osti yo`lagidan tashkil topgandir. Bu erda Dinan goridan tashqari yana ohaktoshlarda shakllangan 20 dan ortiq gorlar guruhi mavjud.

Oqsaroy gori. Ushbu gor Nanay qishlogi yaqinida bo`lib, Pskom daryosining o`ng irmogi Aqsarsoy havzasida joylashgan. Gorning uzunligi 15 m. Lekin unga kirish, to`grirogi gor ogzini topish biroz mushkul, chunki quyidan turib uni ko`rib bo`lmaydi. So`qmoqdan juda aniq va baqamti yaqinlashgachgina Oqsaroy gorining kirish qismi ko`zga tashlanadi.

Afgonsoy gori. Bu gor Nanayga eltuvchi avtotrassadan 3 km yuqorida, aniqrogi Avgonsoy bo`ylab yuqorilaganda ko`zga tashlanadi. Bu erda Afgonsoy och kulrang paleazoy davriga xos ohaktoshlarni kesib o`tar ekan, uning tik qirgoqlarida ko`plab kars ayvonlari, gorlari shakllangan. Ulardan eng yirigi soy o`zanidan 30 m. yuqorida joylashgan bo`lib, uzunligi 25,5 m.ni tashkil etadi. Gor uzun bo`lsada juda tor. Atigi 0,8 m lik yo`lakdan iborat. Ba`zi joylarda yo`lak 4,5 m. ga qadar kengayadi. Bu gorning kichik qismida kam stalaktit va stalakmitlar mavjud.

Goyibota gori. Bu gor Nanay qishlogining o`zida joylashgan. U ham konglomerat qatlamlarida shakllangan bo`lib, uzunligi 16,5 m, kirish ⁹qismining kengligi 41,2 m. gor shifti ichkariga tomon pasaya boradi. Qiziqarli joyi shundaki, gorning to`rida er osti ko`li mavjud. Er osti ko`lining kengligi 4 m. chuqurligi 0,5 m. Ko`lni to`ldirib turgan suv gorning ichki qismidan chiqib keluvchi buloqdan to`planadi. Ko`l kosachasini to`ldirgach, oqim quyiga tomon harakatlanib Pskom daryosiga quyiladi (Poslavskaya - 1987). [11]

Umuman olganda Pskom daryosi havzasidagi aksariyat gorlar speleoturizimni rivojlantirish uchun qulay, chunki ularga etib borish oson, chunki katta trakt yonida joylashgan, kirish uchun ortiqcha qiyinchiliklar mavjud emas. Shu boisdan Chirchiq daryosi havzasidagi eng qiziqarli er osti marshrutlarni ushbu gorlar orqali amalga oshirish mumkin.

Xuddi shunday gorlar Pskom daryosining chap irmoqlari bo`ylab ham mavjud. Masalan Ixnachsoy havzasida ikki qavatli uzunligi 16 m bo`lgan garoyib

¹¹ Poslavskaya O.Yu. Atadjanov I.M. "Po podzemnomu tsarstvu Uzbekistana", "O`zbekiston" T.: 1987 y

gor mavjud. Uning kirish qismi soy o`zanidan 70 m balandlikda joylashgan. Balandligi 10 m kengligi 6 m bo`lgan ungurdan iborat. Gorning ichkari qismining sathi zinapoyasimon tarzda ko`tarila boradi. Gorning to`ridan uning ikkinchi qavatiga olib chiquvchi yo`lak ochiladi. Gor devorlari qalinligi 25 sm bo`lgan kaltsiyli qobiq bilan qoplangan, hamda mitti stalaktit va stalomit qatorlashib turadi.

Sargardon gori. Bu gor Chotqol daryosining Sargardonsoy havzasida joylashgan. Gorning kirish qismining kengligi 8,6 m. balandligi 5,3 m. U Sargardonsoyning o`zanidan 60 m balandlikda hosil bo`lgan 18 m uzunlikdagi gordir.

Oqbuloq gori. Bu gor Sargardon goridan uncha uzoq emas, Oqbuloq soy havzasida joylashgandir. Uning uzunligi 30 m. Oqbuloqsoyning nomsiz kichik irmogi bo`ylab 2 km yuqoriga tomon yurilganda, soyning sharshara hosil qilib tushayotganligini ko`rish mumkin. Ushbu sharsharani mahalliy aholi Xudoydot deb yuritadi. Xuddi shu sharsharaning tagida Oqbuloq gorining kirish qismi ko`rinadi. Uning ko`rinishi uchburchak shaklda bo`lib eni 5 m, balandligi 3 m.dir. Gor sathi yupqa qatlamdan tashkil topgan loy qoplami bilan band. Shu boisdan bu holat turistlarga haraktlanishi uchun bir muncha qiyinchilik tugdiradi. Gor nam uning shifti va yon devorlaridan suv tomib turadi. Shu boisdan gorning ichi juda salqin. Tashqarida 31° S harorat kuzatilgan bir paytda, gorning ichki qismida havo harorati atiga 12° S ni tashkil etadi (Paslavskaya O.Yu. 1987 str. 40).

Biz yuqorida Chirchiq vodiysining ayrim speleoturizm uchun ahamiyatli bo`lgan gornlarning qisqacha tavsifini keltirdik, ammo hududning speleoturistik resurslari biz tavsif qilganimizdan ko`ra ancha boyroqdir. Shu boisdan Chirchiq vodiysining geomorfologik ahamiyat kasb etuvchi turistik ob`ektlarini o`rganar ekanmiz, uning speleoturistik ob`ektlarini yanada kengroq mazmunda tadqiq etishimiz mumkin.

Chirchiq vodiysi ichki suvlarga boy, uning turlari ham ko`p. Ular aksariyat hollarda turizim uchun muhim tabiiy resurs bo`la olishi mumkin. Quyida Chirchiq

vodiysi tabiiy turistik resurslarining hududning ichki suvlari bilan bogliq xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beramiz. Hidrologik – ya'ni ichki suvlardan iborat resurslar uch guruhdan iborat. Ular patamonik, limnonik, glyatsionologikdir.

Patamonik resurslar. Bu turkumga daryolar, soylar, jilgalar va ular bilan bogliq holda shakllangan turistik ob'ektlar mansubdir. Chirchiq vodiysi hududidan, shakllanuvchi, oqib o'tuvchi Ugom, Pskom, Chotqol daryolarining so'lim sohillari ayniqsa yilning issiq damlarida soya – salqin, diltortar bo'ladi. Shuning uchun biz ularni, ya'ni bunday hududlarni yirik tabiiy resurslar deya bilamiz. Daryo sohillaridan tashqari, aynan daryo oqimi bilan birgalikda shakllanadigan ostonalar, sharsharalar o'zlarining qaytarilmas jozibasi, so'limligi bilan turistlarning diqqat e'tiborini ¹⁰tortadi. Shu boisdan sharsharalar ham hidrologik tabiiy turistik ob'ektlarning patamonik turiga bogliqdir.

Sharsharalar. Chirchiq vodiysidagi Qorjontog tizmasidan boshlanadigan Qizilsuv daryosi o'zanining qator ajoyib sharsharalari va oq qayin o'rmonlari bilan sayyohlar o'rtasida ma'lum. Shu boisdan mazkur daryo vodiysi, jumladan, dastlabki uchta sharshara, turli toifadagi sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan maskanlardan biridir. Qizilsuvdagi birinchi sharshara shunisi bilan qiziqki, u bir muncha tik va chuqur ko'rinish hosil qiladi. Sharsharadan tushayotgan suv ustunining balandligi 8 metrga yaqin. Ammo tepasidagi tosh qatlami yana 3 metrcha balandlikka ko'tarilgan. Pastga oqib tushayotgan suv chuqurligi 2 metrga etadigan quduqni hosil qiladi.[12]

Birinchi sharsharadan o'n minutlik yo'lda juda go'zal oq qayin o'rmoni o'sib turibdi. Yozning issiq kunlarida ham salqin tog shabadasi va oq qayin hosil qilgan quyuq soya kishiga huzur bagishlaydi. Qizilsuvning yuqori qismiga ko'tarilgan sari unda turli katta – kichik sharsharalarni uchratish mumkin. Ammo uncha katta va baland bo'lmagan ostonadan sharillab oqib tushayotgan hovuzsimon chuqur o'zining zilol suvi bilan kishi e'tiborini tortadi. Mazkur hovuzning uzunligi 10

¹²Nizomov N. "O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi" T.: 2008

metr va eni 5 metrdan oshadi. Shuningdek, Qizilsuvdagi sharsharalarning biri ulkan qoyaning ikki tomonidan ikkiga bo'lingan holda pastga oqib tushadi. Ammo bu sharshara uncha baland emas.

Toshkent viloyatidagi yana bir daryo – Tovoqsoy tabiat tomonidan qator sharsharalar va kanʼonlar hosil qilgan ajoyib hududlardan biri. Qishda havo harorati 0⁰ dan pastga tushganda mazkur sharsharalar atrofida hosil bo'lgan sumalaklar ajoyib bir manzara kasb etadi. Tovoqsoyda bir nechta diqqatga sazovar sharsharalar mavjud. Ulardan ikkitasi eng yirik Amerikadagi Kolorodo daryosi hosil qilgan Katta Kan'onning kichraytirilgan shakliga o'xshaydigan daralarga oqib tushadi. Atrofda burtib turgan qoyalar esa zinasimon holda daryo vodiysi yonbagirlariga yanada mahobat baxsh etadi. Xuddi shu kan'onga 25 metr balandlikdan Tovoqsoy yirik sharsharalarining biri oqib tushadi. Tabiiy hosil qilgan mazkur jozibador manzara daryo vodiysi bo'ylab bir necha kilometrga cho'zilgan.

Xuddi birinchi sharshara kabi, ikkinchi sharshara ham 15 metrdan pastga tik yonbagirli daraga oqib tushadi. Tovoqsoydagi uchinchi sharshara esa 4-5 metr kenglikda taralib pastga oqadi.

Chimyon tog'lari atrofi sayyohlarning sevimli maskanlaridan biri, bu erda Katta va Kichik Chimyon, Qorasharshara, Gulkam, Novotosh sharsharalarini ko'rish mumkin. Chorvoq suv ombori atrofidagi balndligi 40 metrlik qoyadan oqib tushuvchi Qora sharshara mazkur hududda alohida ajralib turadi. Katta Chimyon togining pastki qismida joylashshgan ushbu sharshara atrofidagi kulrang ohaktoshlar doimiy namlik ta'sirida qorayib, sharsharaga shu nomni bergan.

Gulkam sharsharasi. Bu sharshara tabiati go'zalligi va xilma – xilligi bilan Chimyon tog'laridagi durdonalardan biridir. Rel'efning kesib yuborilganligi Garbiy Tyan'nsan tog'lari uchun xos. Ushbu xususiyatni Gulkamsoy oqib o'tadigan juda tor Gulkam darasi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Gulkamsoy bo'ylab yurib, sharqirab oqayotgan tog daralari, baland tog cho'qqilari, tor daralar

sharsharalar, archazor va qayinzorlarni ko`rish mumkin. Gulkamsoy sharsharasi quyosh nurida hosil qilgan kamalak mazkur hududning go`zalligiga hamohang.[8]

Poltoov sharsharasi. Bu sharshara Poltoovsoyning Chotqol daryosiga qo`shilish joyidagi 4,5 km yuqorida joylashgan. Poltov so`zi “po`lat” ya`ni temirli suv ma`nosini beradi. Ushbu holat bu soyning suvida katta miqdorda qadimdan ma`lum bo`lgan rudali tog jinslarining mavjudligi bilan bogliq. Poltavsoy kengligi 14-16 m. bo`lgan tor dara bo`ylab oqib, kuchli suv oqimi 38 m. balandlikdan tushadi. Sharshara oqib tushgan erda yonbagirdagi qoyalar osilib qolgan va tabiiy gor hosil bo`lgan. Mazkur sharshara neandertal odamlar makoni Obirahmat Gorining yaqinida joylashgan.

Qalʼasoy sharsharasi. Burchumulla yaqinidagi Qalʼasoyda shu nomdagi dara mavjud. Yuqori, o`rta va quyi qismidan iborat mazkur joyning rel`fi juda murakkab bo`lib, bu erdan o`tish mushkul. Daraning yonbagirlari juda tik, ammo suv ularni bir muncha silliq qilgan. Daraning chuqurligi 50 - 80 m., kengligi 1-5 m. bo`lib, bu erda suvi 10 m. balandlikdan oqib tushadigan Qalʼasoy sharsharasi joylashgan. Sharshara tepasida go`yo uning tomi vazifasini o`taydigan, uzunligi 4,5 metr, kengligi 5 metr bo`lgan ulgan toshdan iborat tabiiy ko`prikl joylashgan. Shu bois, sharshara tomonlarining o`lchamlari 4x5 metr, umumiy balndligi 30 m. dan ortiq bo`lgan tabiiy rovoq ostidan oqib tushib, takrorlanmas go`zallik namoyon etadi.

Limnologik resurslar . Suv omborlari. Chirchiq vodiysining suv omborlari tirik gidrologik turga mansub turistik ob`etlar tarzida ham namoyon bo`ladi. Ayniqsa hududning shimoli sharqiy qismida joylashgan Chorvoq suv omborining turizm ahamiyati juda kattadir.

Chorvoq suv ombori. Chirchiq daryosining boshlanish qismida qurilgan (1963-1970) gidrotexnika inshooti. Qishloq xo`jaligini bir me`yorda suv bilan ta`minlash, toshqinlarning oldini olish va gidrotexnika maqsadlarida barpo etilgan. Daryo suvinı mavsumiy tartibga soladi. Suv ombori Chotqol va Ugom toglari orasida qurilgan. Tosh tuproqli to`gonni uzunligi 768 sm, balandligi 168

m. yuqori qismining eni 12 m. To`gonda Chorvoq GES ni suv bilan ta'minlash uchun uzunligi 800 m va diametri 11 m bo`lgan 2 ta tunnel bor. Chorvoq suv omborining to`la sigimi 2006 mln. m<sup>3</sup>, shundan foydali suv hajmi 1580 mln m<sup>3</sup>, suv yuzasi sathi 40.1 km<sup>2</sup>, eni ayrim joylarda 10 km, uzunligi 19 km maksimal chuqurligi 131 m. o`rtacha chuqurligi 55 m suv omboriga Pskom, Ko`ksuv, Chotqol daryolari quyiladi.

Suv oqimi ko`payib xatarli darajaga etganda suvi chiqarilib yuboriladigan shaxtali (1200 m³/sek) va 2 ta pogonali (450 m³/sek) va 500 m³/sek suv tashlagichlar bilan jihozlangan.

Chorvoq suv ombori. Chirchiq – Bo`zsuv suv – energetika traktini bir me'yorda suv bilan ta'minlaydi. Uning barpo etilishi bilan suv kam bo`lgan yillari Toshkent vohasidagi va Qozogiston Respublikasi Janubiy Qozogiston viloyatidagi 355 ming gektardan ortik erni barqaror suv bilan ta'minlash (shundan yangi o`zlashtirilgan erlar 150 ming gektar), Chirchiq daryosining yuqori oqimida ro`y beradigan suv toshqinlariga barham berish imkoniyati yaratildi.

2000 yil boshlaridan Chorvoq suv ombori sohillarida xalqaro andozalarga mos bo`lgan yirik dam olish majmualari barpo etildi.

2. Hududning botanik turdagi tabiiy turistik resurslari va tarixiy turistik ob'ektlari

Hududning botanik turdagi tabiiy turistik resurslariga asrlar davomida ko`karib turgan chinorlar, archalar, tut daraxti, respublikamizning faqat Chirchiq vodiysigagina xos bo`lgan qayinzorlar, archazorlar landshaftlari, ular qo`riqlanadigan yoki sun'iy o`stirilib parvarish qilinadigan boglar, tabiiy holatini saqlab qolish uchun qo`riqlanadigan qo`riqxona, milliy boglar tushuniladi. Chunki bunday ob'ektlar ko`pgina turizm shinavandalarining diqqat e'tiborini tortishi, ularni ko`rishga bo`lgan qiziqishlarini uygotish mumkin.

Chotqol – Ugom xalq bogi. Chirchiq vodiysida Bo`stonlik tumanida joylashgan bo`lib, 1992 yili tashkil etilgan. Ushbu xalq bogi asosan tog oldi va tog tabiiy komplekslarini saqlash hamda rekratsiya, turizimini rivojlantirish uchun juda mosdir. Shu boisdan bu erda mavsumiy ravishda turistlarni tashrif buyurishi, tabiat manzaralaridan bahramand bo`lishlari, hatto ov qilishlari mumkin. Chotqol Ugom xalq bogining manzarali va mevali daraxtzor, o`rmonlarining tabiiy holda mavjudligi ayniqsa turizm bilan shugullanuvchilar uchun qiziqarli ob`ektlardan biridir. Bu erda o`simliklarning mingdan ortiq turi, daraxt va butalarning qirqqa yaqin turi o`sadi. Ularning aksariyati xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda dorivor o`simliklar sifatida qadrlanadi. Chotqol – Ugom xalq bogi hududidagi archazor o`rmonlar, oq qayinzorlar tog tabiatining nodir landshaftlarini tashkil etganligi uchun turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati kattadir.

Oqtosh o`rmon bogi. Ushbu sun`iy o`rmonzor asrlar davomida tabiatning ajralmas bo`lagi sifatida Chirchiq vodiysi landshaftining ajralmas qismiga aylandi. Oqtosh o`rmonzori Toshkent shahridan 60 km. shimoli – sharqda joylashgan bo`lib bu erda qadimgi davrlarda quyuq tabiiy o`rmonlar mavjud edi. Keyinchalik antropogen ta`sir tufayli daraxtlar qirqib o`tin, qurilish uchun yogoch tarzida ishlatildi. Oqtosh o`rmon bogiga 1896 yili asos solingan. Dastlabki ko`chatlar bu erda hosil bo`layotgan selga qarshi ekilgan edi. O`rmonchilar S.Yu.Rauner loyihasi asosida N.V. Pischikov boshchiligida tog terassalarini tashkil etdilar. Shu tariqa 695 gektar maydon o`rmonlashtirildi. Keyinchalik bu ko`rsatgich 1090 gektarni, yoki Oqtoshsoy havzasining 46,3% ni tashkil etdi (Dudurk I.M. i dr. 1980 str. 62).

Oqtoshsoyning asosan quyi qismi o`rmonlashtirildi, yuqori bir muncha tik yonbagirlar daraxtsiz holaticha qolaverdi. Keyinchalik o`rmonlashtirish mexanizatsiya asosida amalga oshirilgach, o`rmonzorlarning maydoni uch barobarga ko`paydi. Bu erda daraxtlar hududning balandlik mintaqalari tanlangan holda ekilgan. O`rmon tarkibida yongoq, oddiy eman, gruziya emani, qoya emani, oq akatsiya, Bixofen teragi, qora terak, pista, qayragoch, tog olcha, Bolle

teragi, o`rik, tol, qrim qaragayi, kabi daraxtlar <sup>11</sup>o`stirilmoqda. Shu tariqa Oqtosh urocheshiyasidan sunʼiy tashkil etilgan o`rmonlar tabiiy landshaft bilan uygunlashib o`ziga xos manzara kasb etadi. Bu holat turistlarning diqqat e`tiborini o`ziga tortadigan go`shaga aylandi.

Chirchiq vodiysi biologik turga mansub turistik ob`ektlar tarkibiga Toshkent shahri va unga yondosh bo`lgan Chirchiq shaharlarining madaniy va istirohat boglarni ham kiritish mumkin. Chunki bu boglarning asosini asriy manzarali va mevali daraxtlarni tashkil etadi. Ularning soya – salqin ko`lankalarida turistlar dam olishi, ovqatlanishi, va tabiatdan zavqlanish uchun etarli darajada barcha kommunikatsiya, infratuzilmalari mavjuddir. Shu boisdan biz quyida Toshkent va Chirchiq shaharlarining eng mashhur istirohat boglarining tavsifiga turizm ob`ektlari sifatida to`xtalib o`tamiz.

Beshyogoch bogi. Bu bog Toshkent shahrining janubi – gʻarbiy qismida joylashgan bo`lib, unga 1937 yili asos solingan va 1938 yili ishga tushirilgan. Toshkent shahri mehnatkashlarning hashar yo`li bilan qilingan ushbu bogning maydoni 69 gektar, tarkibida 20 turdan ortiq ignabargli va yaproqli manzarali, mevali daraxtlar, 28 ming tup turli xushsurat butalar, gullar mavjud. Ularning aksariyati oq, akatsiya, terak, qayrogoch, sada, pensilvaniya jeni, kashtan, eman, chinor, lipa, majnuntol, virginiya motjevel`niki, zangori elb, archa, lola daraxti, vaviloniya toli, qayin kabi daraxtlar tashkil etadi. Bo`rijar kanalidan chiqarilgan ariq orqali bog chekkasidagi hovuz suvga to`ldiriladi. Bogning janubi – gʻarbiy qismida esa Bo`rijar hosil qilgan shovva bogga tarovat baxsh etadi. Daraxtlarning soyasida esa yo`laklar bo`ylab dam olish uchun o`rindiqlar qo`yilgan. Ovqatlanish tizimlarida turli milliy va evropa taomlari tayyorlanadi.[13]

Galaba bogi. Toshkent shahrining shimoli – sharqiy qismi Yunusobod tumani hududida joylashgan. 1947 yili ishga tushirilgan. Bogning Gʻarbiy hududi Bo`zsuv kanaliga tutash. Shu boisdan juda manzarali. Kanaldan chiqarilgan suv bilan bogning manzarasini tashkil etuvchi ellips shaklidagi hovuz (maydoni 5 gektar,

¹³ Loginov L.M. Ruxlov Yu.V. Istoriya razvitiya turistko-ekskursionnogo delp. – M.: “Turist”, 1998 y

chuqurligi 3 – 4 m) to'ldirilgan. Hovuz bo'ylab har ikkala qirgoq (garbiy va sharqiy)ni tutashtirib turuvchi kambar ko'priklar bogning husnini yanada oshirib yuboradi. Uning umumiy maydoni 68 gektar. Bogda 35 tupdan ortiq turli manzarali, mevali daraxtlar, gulli butalar o'sib turibdi. Ularning umumiy soni 23000 dan ziyodroq. Bog yalpi gulzorni eslatadi. Hatto suv havzasi hovuz o'rtasida tashkil etilgan orolchalar ham daraxtlarning quyuq soyasida qolgandir. Bu erda asosan, eman, chinor, lipa, yongoq, kola daraxti, qrim qaragayi, zangori el, virgitiya mojjevel'kasi, pensil'vatiya yachyoni, katal'pa, monmora, oq akatsiya, terak, kanada bargyanasi, kada, mayda yaproqli qayrogoch, olma, olxo'ri, o'rik, yongoq kabi daraxtlar barq urib o'sadi.

Bu turistlarning eng qiziqarli ob'ektiga aylangan. Chunki bu erda yagona arxitektura ko'rinishiga ega bo'lgan Toshkent teleminorasi, Xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi, turli dam olish ovqatlanish tuzilmalari ishlab turibdi. Teleminoraning yuqori qavatlariga ko'tarilgan turistning ko'z oldida butun Toshkent shahri va uni o'rab turgan tabiatning panorama manzarasi namoyon bo'ladi. Ular ushbu diltortar manzaradan bahra olgan holda maxsus kafe – restoranlarda o'zlari uchun ma'qul bo'lgan egulik va salqinlashtiruvchi ichimliklarga buyurtma berishlari, X.X.Yu.K. da esa respublikamizning barcha tarmoqlaridagi yutuqlari bilan tanishishlari mumkin.

Botanika bogi. Toshkent davlat universiteti qoshidagi botanika bogi asosida tashkil topdi, rasmiylashuvi va qurilishi 1950 yildan boshlandi. 1968 yil 1 yanvardan bogga ilmiy tadqiqot instituti maqomi berildi. Botanika bogi respublika miqyosida o'simliklarni introduksiya qilish masalasini o'rganish va ishlab chiqishda ilmiy markaz hisoblanadi. Bogning 64 gektar maydoni bo'lib undan introduktsich qilingan o'simliklarning turi va navlari 1997 yil boshida 6 millionga etdi. Shundan 2500 turi daraxt va buta, qolgani 1,2 va ko'p yillik o'tlardir. Bu o'simliklar Osiyo va Evropa mamlakatlari, Kavkaz, Uzoq Sharq o'lkalaridan, Shimoliy Amerika, Xitoy va O'rta er dengizi bo'yidagi mamlakatlardan keltirilgan. Tropik mamlakatlardan oldingi 800 dan ortiq

o`simlik turlari orangiereyalarda o`stiriladi. Intrduktsich qilingan o`simliklar orasida manzarali va mevali daraxtlar, xilma – xil mevazor mevali butalar, shifobaxsh o`simliklar bor. Ko`chatlari ko`kalamzorlashtirish uchun ekiladigan lola daraxti, lenkoran akatsiyasi, pramidam emani, pushti gulli akatsiya, yirik bargli sho`ka, xitoy teragi, manzarali ko`p yillik piyozli o`simliklardan kola, krokus, shamtsint, ildizpoyali o`simliklardan gulsafsar, sallagullilar 90 dan ortiq duragay gibiskus – patagul o`simliklari etishtiriladi. Bog har yili 15 mingga yaqin urug namunalarini tarqatadi va o`z navbatida boshqa chet mamlakatlardagi 447 bog va 200 dan ziyod turli ilmiy tashkilotlar bilan, aloqa qiladi. Botanika bogi mavzuli to`plami va uruglarning nomi yozilgan indeks risola chiqaradi talabalar, maktab o`quvchilari, tabiatshunoslar va ¹²boshqalar uchun bilim laboratoriyasi bo`lib xizmat qiladi.

Angliyada e`lon qilingan “Dunyoda eng yirik botanika boglari” nomli asarda O`zbekiston botanika bogi ham tilga olingan. Ahad. F.N. Rusanov rahbarligida bog xodimlari tomonidan 14 jildli “O`zbekiston dendrologiyasi” (ruscha), “O`simliklar introduktsiyasi” nomli 24 to`plam va ko`plab monografiya hamda maqolalar nashr etdi.[14]

O`zbekiston milliy bogi. Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston miliy bogi – O`zbekistonda mamlakat miqyosida eng yirik madaniyat va istirohat bogi. Toshkent shahrining markaziy qismida joylashgan. Maydoni 69 gektar, 1991 yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali munosabati bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan. Toshkent shahrining yoshlari tashabbusi bilan hashar usulida qurilib ishga tushirilgan istirohat bogi (1938) hamda bog bilan Istiqlol saroyi oraligidagi hududda loyiha asosida me`moriy majmua yuzaga keltirildi. Majmua markazida favvorali aylana hovuz, amfiteatr shaklidagi tomoshabinlar joylari va sahna kanallari ustidagi ko`priklar va tepalikda o`rnatilgan Navoiy haykali amfiteatrning ikki yonida Oliy majlis va “Navro`z” binolari joylashgan. Milliy bogning yangi qismi sharqona

¹⁴ Hoshimov M.A. “Speleoturizm” Samarqand. “Zarafshon” nashriyoti 2009 yil.

“Chorbog” uslubida loyihalashgan muntazam tartibli keng va shinam yo`laklardan iborat mumtoz kompozitsiyaga ega. Hududidagi tabiiy pasti balandliklardan oqilona foydalanib, so`lim maskan, ajoyib manzara yaratilgan. Bogning muhim tarkibiy qismi Alisher Navoiy me`morial majmuidir (me`morlar: V. Akopjanyan, D. Latipov; haykaltaroshlar: E. Aliev, N. Bandzeladze, V. Deytyanov). Bogning tepalik qismidagi ayvon (rotonda) an`anaviy uslubda ishlangan. Ustunlariga o`rnatilgan feruza gumbaz, uning ostida Navoiyning mahobatli haykali qad ko`targan. Poygumbaz muhannaslar bilan, gumbaz ichi ganchkorlik bilan bezatilib, shoirning tinchlik va ezgulikni madh etuvchi misralari bitilgan. Me`morial majmuaga marmar zinalar orqali chiqiladi. Milliy bog hududidagi yirik jamoat binolari – Istiqlol sa`nat saroyi, Oliy majlis binosi, “Navro`z” restorani, Abulqosim madrasasi, aylana shaklidagi sahna va amfiteatr uygunlikda yaxlit majmua hosil qiladi. Milliy bogdagi suv havzalari, bogdan oqib turgan kanallar (2 ta charxpalak o`rnatilgan), favvoralar, ko`kalamzorlar (terak, akatsiya, archa, qaragay, tut, chinor va b. maysazor va gulzorlar) xushmanzara ko`rinishga ega. Milliy bog Toshkent shahrining eng go`zal va so`lim maskanlaridan bo`lib, shahar aholisi va mehmonlari dam olishi, hordiq chiqarishi uchun qulayliklar yaratilgan. Bogda Navro`z (2005 - yildan) bayramlarning bosh tan`tanalari hamda xalq sayillari o`tkaziladi, turli ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar uyushtiriladi. Milliy bog 2005 yilda qayta ta`mirlanib yana ham ko`rkam qiyofaga kirdi.

O`rganilyotgan hududning qulay tabiiy geografik sharoiti. Bu erda qadimgi davrlardan boshlab insonning xo`jalik yuritishi uchun qulay imkoniyat yaratib berdi. Natijada antropogen kelib chiqishga ega, ammo uzoq yillar mobaynida tabiat bilan o`ta uygunlashib ketgan ob`ektlar vujudga keldi. Ular tarixiyligi, diltortarliligi va qaytarilmasligi jixatdan nodir tarzga kirib qolgandir. Jumladan qadimgi davrlarda yashagan ibtidoiy odamlar manzilgoxlari, qadimgi gidrotexnik inshootlar shular jumlasidandir.

Ibtidoiy odamlar manzilgohlari. Chirchiq vodiysining qulay geografik sharoiti bu erda to'rtlamchi davrning oxirlaridanoq inson yashashi qulay bo'lgan go'shalarining shakllanishiga sababchi bo'ldi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra must'e, neandertal madaniyati deb atalgan davrlar (tosh davri)da qadimgi odamlar tabiiy (ko'proq karst gorlari) gorlardan panox topganlar. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.Chunki kadimgi inson izlari topilgan nuqtalar bizning davrimizda qiziqarli turistik ob'ektlar tarzida xam o'rganiladi.

Obiraxmat makoni. U must'e madaniyatga doir qadimgi manzilgox. Toshkent shaxridan 100 km shimoli-sharkda, Ko'ksuv tizmasi etagidan Poltovsoyning o'ng qirgogida joylashgan Obiraxmat gorini arxeolog olimlar akademik A.R.Muxammadjonov va S.K.Nasriddinov 1962 yili tekshirganlar. Keyinchalik bu erda R.H.Sulaymonov ham tadqiqotlar olib bordi.

Obiraxmat gori yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 m dan ortiq, u quruq va yorug. Sharqiy chekkasidagi qiyalama yon bagridan chuchuk suvli sharshara oqib tushadi. Bu xolat ibtidoiy odamlarni chuchuk suv bilan ta'minlashga xizmat qilgan. Gorning ogzi janubga tomon qaragan. Bu xolat esa qish fasllari ham gorning oftobro'y iliq bo'lishiga, natijada inson yashashi uchun qulay sharoit yaratishga sababchi bo'lgan. Shu boisdan Obiraxmat gorida qadimgi insonlar uzoq vaqt yashaganlar. Natijada bu xolatdan dalolat beruvchi 21 madaniy qatlam shakllangan bo'lib, uning qalinligi 10 m dan iborat.[15]

Obiraxmat goridan nayzasimon qurollar, nukleuslar, turli xildagi tosh kesgichlar, ponasimon qurollar, bigizlar topilgan. Topilmalar tosh davrining eng boy kollektsiyalaridan birini tashkil etadi. Shu boisdan bu gor tarixiy turistik ob'ekt sifatida bu erga keng qamrovli turistlar oqimini jalb etishi mumkin. Buning uchun turistlarga xizmat qiluvchi turizm servisini shakllantirish mumkin. Eng asosiysi turistlarning tashrif buyurishlari uchun eng katta avtomobil transport turlari ¹³xarakatlana oladigan yo'lning mavjudligidir.

¹⁵ Hoshimov M.A. "O'zbekiston ekologik turizmi" Samarqand. "Zarafshon" 2009 yil

Xo`jakent makoni. Bu erda must'e davrida qadimgi insonlar yashagan silluriy davriga xos dolomitlarda shakllangan bir gurux karst gorlari mavjud. U xozirgi Bo`stonliq tumaniga qarashli Xo`jakent qishlogi yaqinidagi qoyatoshlarda shakllangan. 1957 yili bir gurux arxeologlar tomonidan tekshirilgan. Xo`jakent manzilgohlari bir-biriga yondosh 2 ta ungur – karst ayvonidan iborat 1 – ungurdan 2 maydon ochilib, uning bir necha tosh qurollar, uchinchi quyi qatlamidan esa, must'e davriga oid sariq xarsangtosh bo`laklari va ko`pgina tosh qurollar topilgan. 10 dan ortiq yirik tosh, shuningdek mayda nukleuslar uchraydi. Xo`jakent makonidan to parrakcha, qirgich, o`choq o`rni, uning atrofida qoraygan toshlar va qadimgi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan. 2-ungurdan esa xar – xil tosh qurollar va xayvon suyaklari topilgan. Bu erda yashagan neandertallar ovchilik va termachilik bilan kun kechirganlar.

Xo`jakent rasmlari - Xo`jakent qishlogi yaqinida Chotqol tizmasinig (Qo`ngirbuloq togi) shimoliy – sharqiy yon bagirlarida ochilib qolgan dolomit qatlamlarining tektonik harakatlar tufayli tik ko`tarilgan qoyalarida ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan yuzlab qoya suratlaridan iborat. Bu qoya rasmlarini 1949-1950 – yillarda arxeolog X.Alpisboev topgan. 1970-yillarda esa A. Kabirov, 1980-yillarda M.Xo`janazarov o`rgangan. Ushbu noyob qoyatosh yodgorligi o`zining mazmuni, mavzusi, uslubi xususiyatlari va tuzilishi jixatidan rang - barangdir. Ularning ishlanish texnikasi, uslubi, saqlanishi hamda joylashishi, shuningdek rasm sirtining kuyish darajasi, ba`zi rasmlarning ishlanganligiga ko`ra, ular bir vaqtda emas, balki bir necha tarixiy davr mobaynida vujudga kelganligi aniqlandi. Demak, Xo`jakent rasmlarining eng qadimgilari miloddan avvalgi 4-3-ming yillikka mansub, ya'ni bizning davrimizda 5-6-ming yil muqaddam chizilgandir. Eng yangilari esa miloddan avvalgi 1-ming yillikning 2 – yarmi va milod boshlariga taaluqli rasmlar ham mavjud. Xo`jakent rasmlari odam, it, xo`kiz, arxar, tog echkisi, kiyik, ot, o`q-yoy, xandasaviy (geometrik) shakllar va boshqa chizmalar tasvirlangan bo`lib, ular qattiq buyum (tosh, temir) bilan soya, oddiy chiziqlar, shakl ko`rinishi uslubida

urib cho`kichlab (shu boisdan chiziqlar gadir - budir o`yiqlardan tashkil topgan) ishlangan; rasmlar orasida boshsiz va qo`lsiz qilib ishlangan uch ayol tasviri realistik tarzda nozik ishlangan. Qadimgi san`atda ayollar tasviri va haykalchalari juda kam uchraydi. Neolit va eneolit davriga oid arxeologik yodgorliklarning ko`pchiligidan ayollar haykalchalari topilgan. Lekin shu davrga oid qoyatosh rasmlarida ayol tasvirlangan yodgorlik deyarli uchramaydi. Shu sababli Xo`jakentdan topilgan uch ayol tasviri Markaziy Osiyoda neolit va eneolit davri uchun yagona va juda nodir hamda qimmatlidir. Shu boisdan ularning turizm ahamiyati ham juda katta. Faqat ushbu suratlar to`grisidagi tushunchalarni turizm shonavandalariga keng targib qila olish lozim (O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. № 9, 534-bet).

Bizning davrimizda Xo`jakent rasmlarining aksariyati yaxshi saqlangan, ayrim rasmlargina tabiat hodisalari oqibati, emirilgan, sinib tushgan, yorilgan. Atroflari esa karovsiz, tashlangan edi. Hozir obidaning atrofi obodonlashtirilib, turistlarning dam olishlari uchun turli infratuzilmalar shakllantirilmoqda.

Xo`jakent rasmlari arxeologik yodgorlik, qadimgi xalqlar xayotining ba`zi tomonlarini xamda shu joylarning hayvonot olami tarixini o`rganishda tarixiy manba va ibtidoiy odamlarning tasviri san`ati sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan unga turistlar oqimini keng tarzda jalb etish orqali o`rganish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Bo`zsuv makonlari - Bo`zsuv kanali yonida joylashgan ibtidoiy odamlar makonlari. Toshkent shaxridan 12-15 km shimoli-garbda joylashgan Makonlardan biri Shoimko`prikni (1901) A.P.Pavlov, ikkinchisi Sho`ralisoy yoqasidagini (1955) O.I.Islomov topib tekshirgan.

Shoimko`prik makonini G.V.Parfenov, Sho`ralisoy yoqasidagi makonni A.P.Okladnikov o`rganadi. Har ikkala makondan must`e va yuqori paleolit davriga xos chiroqsimon plastina, qirgich, nukleus, chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar va turli hayvon suyaklari topildi. Bo`zsuv kanali yoqalab olib borilgan

keyingi tekshirishlar natijasida paleolit davriga xos Bo`zsuv III, IV va V kabi yangi makonlar ochildi. Bo`zsuv makonlarida olib borilgan ilmiy – tadqiqot ishlari bu erdagi ibtidoiy odamlar must’ e va yuqori paleolit davrida urug jamoasi tarzida uyushganlar. Ushbu ahborotlarni barchasi turizm ixlosmandlariga etkazish orqali ularning bu erga ya’ni Bo`zsuv makoniga bo`lgan qiziqishlarini ortirish mumkin. Chirchiq vodiysining qadimgi gidrotexnik inshootlari xam ayni turizmni rivojlanitirish borasida ham katta qiziqish uygotadi. Chunochi bu borada quyidagi omillar mavjud. Chirchiq vodiysida qadimgi gidrotexnik inshootlarni turli va antik qiymatdagi ko`rinishlarining mavjudligidadir. Qadimgi gidrotexnik inshootlar joylashgan chekka hududlarda boy milliy an’ana va xalq urf – odatlari, sharqona mehmondo`stlik elementlarining nisbatan saqlanib qolganligi ham muxim rol o`ynaydi. Quyida Chirchiq vodiysining ayrim qadimgi gidrotexnik inshootlari va ularning turizm ahamiyati xususida tushuncha beramiz. [16]

Qadimgi gidrotexnik inshootlari tarzidagi tarixiy turistik ob’ektlari Bo`zsuv kanali. Chirchiq daryosidan chiqarilgan qadimgi kanal. U eramizdan oldingi iki uch yuz yilliklarda qazilgan, Kushon davlatchiligi davriga xos qadimgi obida. Bo`zsuv kanali Chirchiq daryosining o`ng soxilidagi qadimgi terassalar bo`ylab shimoli-sharqdan, janubi-garbga tomon yo`nalib Toshkent <sup>14</sup>viloyati Qibray, Zangiota va Yangiyo`l tumanlari, Toshkent shaxri hududi shuningdek Qozogiston Respublikasi hududidan o`tib, Chinoz yaqinida Sirdaryoga quyiladi. Uzunligi 159 km . Boshlanish qismida suv sarfi 310 m<sup>3</sup>/s, Bo`zsuv kanalining o`zani egri-bugri, kengligi 10-20 m, quyi qismida 30 m gacha chuqur dara hosil qilgan. Bo`zsuv kanalidan har ikki tomonga suv sarfi 0,5 m³/s dan 35 m³/s bo`lgan, irrigatsiya va sanoat uchun mo`ljallangan katta-kichik 23 ta kanal chiqarilgan. Ular hududning qadimgi tarixiy obidalari sifatida ham katta turizm ahamiyatiga egadir. Chunki

¹⁶ Hayitboev R. “Turizmning maxsus turlari” Samarqand iqtisodiyot va servis Samarqand – 2008 y

o`lka tarixi o`lkashunoslik bilan qiziquvchi turistlar ushbu inshootlarni ko`rib, tomosha qilishga katta ishtiyoq bildiradilar.

3.Chirchiq vodiysi rekratsion turistik ob'ektlarning geografik

tarqalish xususiyati

Rekreatsiya (tiklash, o`rnini to`ldirish demakdir)ning qamrovi katta bo`lib, odamlarning dam olishi, madaniy xordiq chiqarishi ma'nosini beradi. Rekreatsiya ob'ektlari Chirchiq vodiysida ham keng tarqalgandir.

Tabiiy komplekslar yoki landshaftlarni rekreatsion nuqtai nazardan tadqiq qilish asosan landshaftlarning rekreatsion imkoniyatlarini va ularga rekreatsion bosimning ta'sirini baxolashdan iborat. (jadval)

Rekreatsiya zonalarida dam olish tashkiliy va notashkiliy (ixtiyoriy bo`lishi mumkin. Tashkiliy dam olish turli muassasalar tomonidan uyushtiriladi. Notashkiliy (ixtiyoriy) dam olish esa odamlarning xoxishlari bo`yicha bir yoki bir necha kishi bo`lib belgilangan hududlar, uyushtiriladi. Bunday xududlar Chirchiq vodiysining yuqori ba'zan o`rta oqimlarida zich xolatda kuzatiladi. Ayniqsa tashkiliy va hatto notashkiliy holatda dam oluvchilarning kelishi Chorvoq suv ombori bo`yi, Chimyon dam olish zonasi atroflarida ko`p kuzatiladi. Undan tashqari Ugom, Pskom Chotqol daryolarining bo`ylarida yashovchi maxalliy aholi tomonidan Oqtosh, Qoraqiya dam olish nuqtalarining tashkil etishi rekreatsiya maydonlarini shakllanishiga sababchi bo`lmoqda.

Bu erda dam olishdan ko`zlangan maqsad turlicha bo`lishi mumkin davolanish, soglomlashtirish, sport, tanishuv va xakozo tarzida.

Dam olish mavsumiga qarab ham turlicha bo`lishi mumkin. Yozgi dam olish turlari quyidagilarni o`z ichiga oladi; cho`milish, quyosh vannalarini olish piyoda yurish (davolanish, salomatlikni tiklash, ekskursiya) qayiq sport baliq ovi, turli xil mevalar, dorivor o`tlar, qo`ziqorin terish, otda sayr qilish al'pinizm bilan

shugullanish va xakazo. Biz quyida mavsumiy yoz dam olish turlarining geografik tarqalish xususiyatlari to`grisida qisqa to`xtalamiz;

- davolanish, salomatlikni tiklash - "Oqtosh", "Xumsonbuloq", "Tovoqsoy", "Qibray", "Botanika", "Kristall", "Bo`ston" kabi sanatoriylarda ayniqsa yoz fasllari juda gavjum bo`ladi;

- ekskursiya - Chirchiq daryosi sohili bo`ylab, Ugom, Pskom, Oqtosh, Qoraqiya, Chotqol daryolarining sohillari va irmoqlari bo`ylab may - avgust oylarida turli ekskursiya yo`nalishlarini tashkil etish mumkin;

- qayiq sport - Bo`zsuv kanali, Chirchiq daryosiga kadar bo`lgan hududlarda va Xo`jakent, Gazalkent, Chorvoq suv ombori bo`ylab keng miqyosda rivojlantirish mumkin;

- baliq ovi - Chirchiq daryosi, Ugom, Pskom, Chotqol daryosi hamda Chorvoq suv ombori qirgoqlari bo`ylab shakllantirish mumkin;

- turli xil mevalar, dorivor giyoxlar terish yoz oyining oxirlarida ba`zan kuzda dorivor giyohlar kiyik o`ti, tog yalpizi, o`lmas o`t, dalachoy, limon, do`lana, smorodina, yongoq, tog olcha terishni Ugom, Pskom, Oqtosh, Chotqol toglar bo`ylab keng holatda tashkil etish mumkin;

- qo`ziqorin terish bu dam olish turi mavsumiy axamiyat kasb etgan xolda baxor fasli, ya`ni mart, aprel, may oylarida Chirchiq vodiysining barcha adir va balandlik mintaqalari bo`ylab shakllantirish mumkin. Chunki qir qo`ziqorinlari yilning sernam baxor fasllaridagina ushbu hududlar bo`ylab unib chiqadi. Ularni terish, dalada pishirib, o`tda toblab, cho`qqa bo`lib yogda qovurib iste`mol qilish kishiga katta estetik zavq - shavq uygotgan xolda maroqli dam olishga xam sababchi bo`ladi;

- otda sayr qilish. Chirchiq vodiysining yuqori qismlarida joylashgan barcha qishloqlardan ot - ulovni ijara tarzida olib xoxlagan muddat davomi sayr, sayoxat uchun foydalanish mumkin. Ayniqsa, otda sayr qilish uchun Beldirsoy, Chimyon xududlari juda qulaydir. Chunki bu erda otda sayr qilish uchun barcha servis

xizmatlari, jumladan dam oluvchilarni ot bilan ta'minlash ishlari xam yaxshi yo'lga qo'yilgan.

- al'pinizm bilan shugullanish. Garbiy Tyan'nsan tog'larining barcha xududlari, jumladan, Chirchiq daryosi vodiysi xam dam olishnsh soglomlashtirishning ushbu turi uchun xam juda qulaydir. Chunki Chirchiq daryosi vodiysi bo'ylab tik qoyalari, nishabligi yuqori bo'lgan yonbagirlar keng tarqalgandir. Ushbu xolat al'pinizm bilan shugullanish uchun imkoni yaratib beradi. Shu boisdan ayrim to'garaklar tarkibida, yoki yakka xolat, dam oluvchilar sportning ushbu turi bilan shugullanishlari mumkin.[17]

Qishki mavsumda quyidagi dam olish turlari bilan shugullanish mumkin; jumladan changi sporti, muzosti baliq ovi, sport ovchiligi, davolanish, salomatlikni tiklash, piyoda sayr qilish va xakazo. Quyida ushbu dam olish turlarini uyushtirish mumkin bo'lgan nuqtalarni Chirchiq vodiysi bo'ylab geografik tarqalishini tavsif etamiz;

- changi sporti. Ushbu sport turi bilan shugullanishni xoxlagan barcha dam oluvchilar uchun Chirchiq vodiysida maxsus jihozlangan rekreatsiya markazlari mavjud. Xususan, Chimyon changi sport soglomlashtirish ¹⁵markazida sportning aynan shu turi bilan shugullanuvchilar uchun maxsus jixozlangan. Bu erda changichilar barcha servis xizmatlaridan foydalanishlari maroqli dam olishlari mumkin. Bildirsoy changi sport soglomlashtirish kompleksi ham xuddi shunday xizmatlar uchun maxsus jihozlangandir. Ularning qisqacha tavsifini beramiz;

Chimyon changi sport soglomlashtirish markazi "Chimyon oromgohi" deb ham ataladi. Bu erda turist, sportchi va dam oluvchilarning dekabr - aprel oylarida qishki sport turlari bilan shugullanishlari, qish ziynatidan baxramand bo'lib salomatligini tiklashlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Yoz mavsumida esa, turli yo'nalishlarda tog bo'ylab ekskursiyalar ham uyushtiriladi. **"Chotqol oromgohi"** Toshkent shaxridan 80 km shimoli sharqda, Chotqol tizmasining

¹⁷ Hayitboev R. Sattarov A. "Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi" Samarqand – 2009 y

dengiz satxidan 1600 m baland qismida joylashgan. 1170 yillarda bu maskanda qurilish va tekislash ishlar boshlangan. 1983 yili esa mexmonxona, restoran, kanat (osma) yo`l boshqa xizmat qo`rsatish tizimlari bunyod etilgan. "Chimyon oromgohi"da changida uchish uchun uzunligi 300, 500, 800 va 1500 m qiyaligi 25-40 gradus bo`lgan trassalar bor. Chotqol tog tizmasida qorning sirpanchilik darajasi yaxshi bo`lganligi uchun 2000 yilda "Chotqol oromgohi" yaqinida Bildirsoy xavzasida "Bildirsoy " tog changi sport markazi qurildi. Uning changi uchish trassasi jaxon standartlariga mos bo`lganligi uchun xalqaro changi tog sporti federatsiyasi (FIS) tomonidan ro`yxatga olingan. "Chotqol oromgohi" atrofidagi ajoyib qishki tog manzarasi bu maskanga keluvchilarga zavq bagishlaydi. Hozirgi vaqtda "Chotqol oromgohi"da 220 o`rinli mexmonxona, uzunligi 700 va 2500 m bo`lgan 2 ta kanat (osma) yo`l qurilgan.

Rekreatsion baxolash ob`ekti - landshaftlar, joylar, maydonlar va fattsiya bo`lishi mumkin. Rekreatsiya komplekslarini joylashtirishni loyixalashda landshaftlarni taxlil qilish yaxshi natija beradi. Bunda turli landshaftlarni rekreatsion maqsadlarda foydalanish darajasiga qarab eng qulay landshaft turi tanlanadi. Masalan, daryo vodiysi, tog yonbagri, yo`l yoki suv ombori qirgoqlari, tekislik, okean joyi dengiz qirgoqlari, o`rmon va x.k.

Aloxida rekreatsion komplekslarni (dam olish uylar, sanatoriylar, sayyoxlik majmualari va x.k) loyihalashtirayotganda aniq maydonni baxolash yaxshi natija beradi.

Rekreatsion maqsadlarda baxolashda ularni estetik jixatdan baxolash ham muxim o`rin tutadi. Bunda tabiiy sharoitning ayniqsa, rel`efning, o`rmonlarning landshafti umumiy ko`rininshining estetik jixatdan zavq bera olish imkoniyati hisobga olinadi.

Baholashning oxirgi bosqichida tabiiy komplekslarning rekreatsion korxonalarni joylashtirish uchun yaroqliligi va rekreatsion bosimga barqarorlik darajasi xisobga olinadi.

Chirchiq vodiysida dam olishni yil bo'yi ham tashkillashtirish mumkin. Bu bosqichda axolining dam olishi yilning barcha fasllari bo'ylab to'xtovsiz shakllantiriladi. Bu borada maxsus tashkil etilgan dam olish uylari, sanatoriy va kurortlar juda muxim rol o'ynaydi. Chirchiq vodiysida tabiiy geografik sharoitning qulayligi bu erda quyidagi rekreatsiya nuqtalarining shakllanishiga sababchi bo'lgan. Ularni asosan kurortlar va sanatoriyalar tashkil etadi.

Chirchiq vodiysining kurortlari. Chirchiq vodiysining dam olish, sogliqni tiklash uchun tabiiy geografik sharoiti qulay bo'lganligi sababli bu erda bir necha nuqtalar bo'ylab kurortlar tashkil etilgan.

Kurort (nemischa kurort -dam olish joyi) odam organizimiga foydali va yoqimli ta'sir etadigan tabiiy shifobaxsh vositalar (mineral buloqlar, shifobaxsh balchiqlar, qulay iqlim va boshqalar)ga ega va shu vositalarni davolash profilaktika maqsadida qo'llash uchun zarur shart – sharoitlar bo'lgan joydir. Shunday joylarda sanatoriyalar tashkil etiladi va Chirchiq vodiysida bunday sanatoriyalar mavjud.

Tabiiy davo vositalarining xususiyatiga ko'ra bal'neologik, balchiq bilan davolaydigan va iqlimiy kurortlari mavjud. Ular bir – birlaridan ushbu xususiyatlari bilan farq qiladi.

Chirchiq kurortlarida bir necha xil davo omillari (balchiqli, bal'neologik, bal'neoiklimiy, iqlimiy, bal'neologik - balchiqli va x.k) mavjud.

Bal'neologik kurortlarda asosiy davo omillari vanna, dush, basseynda cho'milish (gidrokarbonatli, natriy sul'fatli va boshqa suv manba'lari) shuningdek yuvish, klizma, chayish va boshqa ko'rinishida qo'llaniladigan mineral suvlar hisoblanadi. Masalan, Toshkent Mineral suvi - Chinobod, Chorvoq, Chimyon va boshqa kurortlar bunga misol bo'ladi.

Balchiq bilan davolaydigan kurortlarda suvi sho'r ko'p va limanlarning balchigi, sapraper balchigi (suvi chuchuk ko'llarning balchigi), torfli balchiqlar

(chuchuk va minerallashtgan) ishlatiladi. Chirchiq vodiysidagi kurortlarga asosan shifobaxsh balchiqli Jizzax viloyatining Baliqchi ko'l balchigidan olib kelib foydalaniladi.

Iqlimiy kurortlarda iqlim omillarining shifobaxsh xususiyatlari; kurortlarning geografik joylashishi, rel'efi va tabiati bilan bogliq. Chirchiq vodiysida iqlimiy kurortlardan Oqtosh, Chimyon va boshqalari mashxur.

Kurortlar o'rnatilgan joyiga qarab suv ombori, dengiz, ko'l bo'yi, toglik, tekislik, o'rmon, dasht, cho'l, chalacho'l kabi turlarga bo'linadi. Chirchiq vodiysida xavo va quyosh vannalari, shuningdek dengiz, daryo va ¹⁶ko'llarda cho'milish iqlimiy kurortlarning asosiy davo usullaridir. Toshkent viloyatidagi Yangibozor qishlogida qimiz bilan davolaydigan maskanlar qurildi.

Chirchiq vodiysi kurortlarining bu erda ul'trabinafsha nurlar ko'p bo'lganligi uchun, kurort pastroq, havo toza va poklashgan bo'lganligi sababli qo'shimcha jixozlar bilan boyitgan xolda tarmoqlarni yanada rivojlantirish orqali turizmni rivojlantirish mumkin.

Bog iqlimiy kurortlarida davolanish faqat tabiiy davo vositalaridan foydalanish emas, balki organizmning himoya kuchini, shuningdek uning noqulay ob - havo omillariga chidamini oshirishga qaratilgan zarur profilaktik chora - tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Zaruriyatga qarab fizioterapevtik muolajalar, shifobaxsh fizkul'tura, parhez taomlar, dori - darmonlar, turli giyoxlardan tayyorlangan sharbat va damlamalar ishlatiladi.[18]

Kurortlarda davolash maxsus ruxsatnoma va ko'rsatmalarga asosan olib boriladi. Bemorning kurortda davolanishi uchun ko'rsatma bo'lsa, unga tavsiya etilyotgan kurortning xili, davolash turi (sanatoriya yoki ambulatoriya) va mazkur bemorning davolanishi uchun eng qulay fasl ko'rsatilgan ma'lumotnoma beriladi. Bu bemorga kurortda yo'llanma olish uchun asos bo'ladi.

¹⁸ Hoshimov M.A. Kucheryavix V.I. "Tabitaning nodir sayrgohlari" T.: "Mehnat". 1991 yil

Chirchiq vodiysining sanatoriylari. Sanatoriya- **lotin tilida sano** -davolayman degan mazmun beradi. Demak Chirchiq vodiysi sanatoriylarida xududning tabiiy geografik sharoiti asosida davolash - profilaktika ishlari amalga oshiriladi. Bu erda iqlim, mineral suvlar, shifobaxsh balchiq va boshqa vositalar bilan birgalikda davo, badan tarbiyasi ham qo'llaniladi, parhez ovqatlar beriladi, davo va dam olish tartibiga amal qilinadi. Sanatoriylar kurortlarda va iqlim tabiati sanitariya - gigiena sharoitlari qulay bo'lgan erlarda joylashadi. Masalan, Oqtosh, Chorvoq dam olish zonalaridagi sanatoriylar kabi.

Chirchiq vodiysining o'zi yashab turgan iqlim sharoitlarida soglomlashtirish uchun noyob tabiiy iqlim omillariga ega bo'lgan sanatoriylar bor. Shuningdek bu erda mineral suvlarning barcha turlarini o'z ichiga olgan boy gidromineral resurslar mavjud. "Chimyon" sanatoriyasida "Moqesti" suviga o'xshash sulfidli (vodorod sul'fidli) suv, "Chinobod "Turon", "Bo'ston", "Botanika" sanatoriylarida Saki, Evpatiriya kurortlarning suvidan qolishmaydigan, kam minerallashtirilgan gidrokorbanat, natriy xloridli suvi bor. Bu shifobaxsh suvlardan bemorlar ichadilar vanna, dush qabul qiladilar va davo maqsadlarida foydalanadilar. Sanatoriylarda hozirgi kun talablariga javob bera oladigan davolash diagnostik bazasiga ega. Sanatoriylarda davolash diagnostika muolajalarini olib borish uchun malakali shifokorlar, tibbiy asbob uskunalar bilan jihozlangan xonalar va laboratoriyalar mavjud. Tibbiy yo'nalishga qarab sanatoriylar qon aylanish a'zolari, ovqat xazm qilish a'zolari, nafas olish a'zolari kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishi, asab buzilishi, tayanch xarakat a'zolari, endokrin kasalliklarini davolashga mo'ljallangan bo'ladi. Ularning ayrimlari bilan tanishtiramiz:

"Bo'ston" sanatoriysi. Bal'neologik kurort. Toshkent shaxridan 30km uzoqlikda. Chirchiq shaxrida dengiz satxidan 550 m balandlikda joylashgan. Maydoni 35,5 ga. Shundan 16 ga mevali bog va manzarali daraxtzorlardan iborat. Iqlimi kontenental, qishi yumshoq, yozi issiq. Yanvarning o'rtacha xarorati - 1,5⁰

S, iyulniki 25° S nisbiy namligi 55 %, quyoshli kunlar davomiyligi yiliga 2700 soat. Davolash maqsadida kam minerallashtirilgan termal (42° S) sul'fat - kal'tsiy netriyali kuchsiz ishqorli azotli suv vannalar va ichish uchun Jizzax viloyati, Zomin tumani "Baliqli ko'l"dan keltiriladigan balchiqdan gal'vanik balchiq, parafin, ozonerit ko'rinishida foydalaniladi. Bundan tashqari fizioterapiya, massaj, iqlim bilan davolash usullari ham qo'llaniladi. Sanatoriyda qon aylanish a'zolari, nerv sistemasi, ginekologik, urologik kasalliklari bor bemorlar davolanadi. 400 o'rinli yotoq korpusi, klub, kutubxona, fitobar mavjud.

"Botanika" sanatoriysi. Bal'neologik kurort. Toshkent shaxridan 30 uzoqlikda. Chotqol to'g'i etaklarida, Chirchiq shaxridan 15 km masofada dengiz sathidan 570 m balandlikda joylashgan. Maydoni 19,7 ga. Sanatoriy xududida dastlab temir yo'l xodimlari uchun dam olish uyi (1942 yilgacha) xarbiy gospi'tal' (1942-1946), mavsumiy va yil bo'yi ishlaydigan (1966) dam olish uyi bo'lgan. 1966 yildan markaziy va periferik nerv sistemasi xamda hazm a'zolari kasalliklari bilan og'riqan kishilar davolanadigan sanatoriyga aylantirildi. Sanatoriy yaxshi ko'kalamzorlashtirilgan yaqinidan Bo'zsuv oqib o'tadi. Iqlimi kontenental, qishi yumshoq, yozi issiq. Yanvarning o'rtacha xarorati -1° S, iyulniki $+26^{\circ}$ S, nisbiy namlik 50 %, quyoshli kunlar davomiyligi yiliga 2700 soat. Sanatoriydagi termal xlorid – gidrokarbonat - natriyli mineral suv ichish, vannalar uchun, ichaklarni chayish, me'dani yuvish maqsadida, Jizzax viloyati, Zomin tuman,"Baliqli ko'l" dan olib kelingan ¹⁷balchiqdan chaplash (appakkatsiya) va gal'vanik balchiq ko'rinishida foydalaniladi. Bundan tashqari fizioterapiya, refleksoterapiya, davo fizkul'turasi massaj, issiq (paradji va ozenerit) hamda lazer bilan davolash usullari qo'llaniladi. 526 o'ringa mo'ljallangan yotoq korpuslari, klub, kutubxona, sport maydonchalari mavjud.[19]

Chinobod sanatoriysi. Ovqat xazm qilish a'zolari (me'da, ichak, jigar o't pufagi) kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan tibbiy sog'lomlashtirish markazi.

¹⁹ Hoshimov M. , Hoshimov J. "Hisor yon bagriga sayohat", Toshkent "Fan" T.: 1979 yil

Toshkent shaxrining Yunus Obod tumanida joylashgan. Sanatoriy xududi 1938 yilda paxta tozalash zavodlari ishchilarining dam olish zonasi bo'lgan. 1941 yili evokuatsiya qilingan hospital tashkillashtirilgan. 1946 yili sanatoriyga (75 o`rinli) aylantirilgan. Sanatoriyni xozirgi maydoni 19 ga. Atrofi mevali va manzarali daraxtlar bilan ko`klamzorlashtirilgan. 1963 yilda sanatoriy xududida 1554 m chuqurlikdan burgu qudugi orqali Toshkent mineral suvi chiqarilgan. Sanatoriy 370 o`rinli, unda davolash va diagnostika bo`limlari, jumladan shifobaxsh mineral suv, balchiq, ozanerit va aerosolyariy, ingolyatoriy, rentgen, rekromonoskopiya, stomatologiya xonalari, biokimyo, baktireologiya va klinik laboratoriyalari bor. Mineral suvdan asosan vannalar uchun, ichish, ichaklarni chayish, dyubaj, dush, suv osti massajni qilishda foydalaniladi.

Sanatoriya 370 o`ringa mo`ljallangan yotoq korpuslari, ikkita oilaviy kottedj, klub, kutubxona, sport maydonchasi ishlab turibdi.

Chinobod sanatoriysida bekamu-ko`st davolanish, maroqli dam olish uchun barcha qulayliklar va orombaxsh mikroiklim mavjud.

Oqtosh sanatoriysi. Toshkent viloyati Bo`stonliq tumani, Oqtosh qishlogidagi iqlimiy kurort. Toshkent shaxridan 65 km, Gazalkent shaxridan 10 km masofada joylashgan. Dengiz satxidan balandligi 1140 m. Maydoni 8,5 ga. Tarixiy manbalarga ko`ra sanatoriy xududida dastlab geologlar yashab tog qidiruv ishlarini olib borganlar. 1936 yilda nafas a`zolari xamda nerv sistemasi kasalliklari bilan ogrigan kishilar davolanadigan sanatoriy tashkil etilgan. 1942-1945-yillar sanatoriy ko`krak qafasi jaroxatlanganlar uchun xarbiy hospital bo`lgan. Hozir nafas a`zolari kasalliklari, asosan bronxial astma bilan ogrigan bemorlar davolanadi. Sanatoriy yaxshi ko`klamzorlashtirilgan, atrofi keng bargli o`rmonlar bilan o`ralgan (yongoq, pista, bodom, va boshqalar o`sadi).

Iqlim mo``tadil, kontenental, qishi yumshoq, yozi issiq. Yanvarning o`rtacha xarorati -2° S, iyulniki 35° S, nisbiy namlik 55 %, quyoshli kunlar davomiyligi yiliga 2550 soat. Davolash omili – kislorodga va efir moylariga boy musaffo tog

xavosi. Tog daryolarida keladigan gidro ionlashish kelib chiqishi jixatdan nospetsifik nafas a'zolari xastaliklariga shifobaxsh ta'sir etadi. Davolash kompleksi fizioterapiya, sun'iy vannalar (ignabargli, tuzli) sauna, parafin va ozonerit bilan davolash, massaj, davo fizkul'turasi, teryankur, maqsadga muvofiq ovqatlanishdan iborat. Sanatoriya shark tabobati - giyoxlar bilan davolashdan keng foydalaniladi. 100 (yozda 126) o'ringa ega yotoq korpuslari, 4 ta oilaviy kottedj, klub, kutubxona, sport maydonchalari mavjud. Kelajakda 400 o'ringa mo'ljallagan qurilish ishlari olib borilmoqda.

1-jadval

Tog turizmi maqsadlarida tabiat komponentlarini baholash mezonlari (Chirchiq va Ohangaron daryolari havzalari misolida)

Yonbagir xususiyati	Yonbagir qiyaligi daraja	Yonbagir yuzasining xususiyati	Tabiiy jarayonlar	O'simlik qoplamlarining % hisobidagi qoplami	Yolgizoyoq yo'llarning mavjudligi	Suv manbalari ning mavjudligi	Tabiat manzaralarining estetik ahamiyati
1	2	3	4	5	6	7	8
Qulay emas							
Juda qiya ba'zan tik ko'tarilgan	30-60	Kristall tog jinslari usti ochilib yotadi	Tog qulashi qurumlar tarqalgan suriilmalar	Siyrak buta va butachalar mavjud, 0-30	"Echki suqmoqlar" tarqalgan	Yo'q	Yalangoch qoyalar bir biridan kam farq qiladigan manzaralar
Kamroq qulay							
Juda qiya, joylarda tik ko'tarilgan	30-40 ba'zan 50	Kristall tog jinslari ochilib yotadi, ba'zan lyossimon jinslari bilan qoplangan	Tog qulashi, surilma va eroziya tarqalgan	Siyrak butalar onda-sonda daraxt uchraydi, 0-40, ba'zan 50	Siyrak so'qmoqlar, jarayonlar bilan buzilgan	Joylarda kam suvli qurib qoladigan buloqlar mavjud	Bir xil Bir-biridan farq qiladigan manzaralar
Qulay							
Qiya	15-30	Lyossimon jinslar, yuqori qismida ellyuviy va dellyuviy tarqalgan	Surilma, eroziya ariqlari va jaar eroziyasi	Daraxt va butalar zich holda 40-50	Etarli darajada, ba'zan buzilgan	Sersuv buloqlar, soylar suvi ichish uchun yaroqli	Bir-biridan farq qiladigan manzaralar, relefning tik parchalanishi kuchli atrof ko'rinishi 15 km dan ko'p
Juda ham qulay							

Qiya	15-30 10-15	Lyoss, lyossimon jinslar, yuqori qismida ellyuviy va dellyuviy	Siyrak surilma, eroziya ariqlari va jarlar	Daraxt va butalar zich holda 30-100	Etarli darajada	Yirik daryolar, sersuv buloqlar	Bir-biridan farq qiladigan manzaralar, relefning tik va yotiq parchalanishi kuchli atrof ko`rinishi 25 kmdan ko`p
------	----------------	--	--	--	--------------------	--	---

II bob yuzasidan xulosa

Chirchiq vodiysi qadimdan respublikamizning dastlabki quruqlikka aylangan hududlaridan biri sifatida ma'lum. Shu boisdan uning murakkab geologik xususiyati va er yuzasining tuzilishidagi garoyib ko'rinishlar turizm shinavandalarining diqqat e'tiborini tortadi.

2- bobda, asosan, Chirchiqning geologik tuzilishi bilan bogliq holda shakllangan turistik resurslari xaqidagi umumiy ma'lumotlar berilgan. Chirchiq vodiysining togli qismi eng qadimgi davr yotqiziqlaridan tashkil topganligining o'ziyoq turistlar uchun juda qiziqarlidir. Chunki ular Ugom, Pskom, Chotqol tog'lari bo'ylab yuzaga chiqib yotadi. Ko'pchilik joylarda esa tektonik kuchlar tufayli juda ham kuchli burmalanib garoyib shakllar hosil bo'lgan. Bunday manzaralar sanoqli nuqtalardagina qaytarilsada turistlar uchun muhim ob'ektlar tarzida o'rganiladi. Masalan, Chorvoq suv omborining chap sohil bo'ylab avtomobil yo'lining shundoq yonginasida silluriy davriga xos kulrang ohaktosh qatlamlarining kuchli burmalanganligini ko'ramiz. Ushbu burmalar ba'zan tektonik yoriqlar ta'sirida parchalanib ketgan bo'lsada, ularning umumiy ko'rinishi juda yaxshi saqlanib qolgan. Natijada tektonik kuchlar ta'sirida qatlamlarning egilib yuqoriga ko'tarilishini ta'minlaydi. Ammo quyidan ta'sir etayotgan kuch barcha nuqtalarda bir xil emas, balki turli nuqtalarga turlicha ta'sir etgandir. Shu boisdan ayrim joylar kamroq ba'zi joylar esa ko'proq ko'tarilgan. Ma'lum darajada qattiq va yaxlit bo'lgan ohaktosh qatlamlari bu kuchga qarshilik ko'rsatar ekan, ikki orada siqilgan tog jinslari bir-birlariga qarshi yo'nalgan ikki

kuch orasida siqilgan quyi qatlamlari, bosim katta bo'lgan joylardan bosim kichik bo'lgan nuqtalarga surilib burmalar hosil qilgan. Natijada ohaktosh qatlamlari jimjimador yo'nalishlar ko'rinishida egilib bukilgan. Ularning umumiy ko'rinishi chizmada aks etgani kabi juda murakkabdir. Demak burmalanish tabiatda yuz beradigan nodir holat tarziga kirgan va u turistlarning diqqat e'tiborini albatta jalb etadi. Burmalardan tashqari Chirchiq vodiysining yuqori qismlari bo'ylab qadimgi davrda yashagan dengiz jonivorlarining o'simliklarining qoldiqlari ham uchraydi. Ushbu paleontologik yodgorliklar qadimgi geologik davrda mavjud bo'lgan tabiat ko'rinishlari, uning organik dunyosi xususida, tasavvur hosil qilish uchun etarli asos bo'la oladi. Ayniqsa Toshkent shahridan 50 km shimoli sharqda topilgan dinazavr skleti turistlarda juda katta qiziqish uygotishi mumkinligi ta'riflab o'tilgan. Hozir bu noyob topilma Toshkent shahar Geologiya muzeyida saqlanmoqda. Yura davrida yashagan ushbu ikki oyoqli ulkan o'txo'r jonivorning barcha a'zolariga xos ustixonlari qariyb to'liq saqlanib qolgandir.

Chirchiq vodiysining sanatoriyalari xaqida ma'lumotlar juda ko'p keltirilgan. Chirchiq vodiysi sanatoriyalarida xududning tabiiy geografik sharoiti asosida davolash - profilaktika ishlari amalga oshiriladi. Bu erda iqlim, mineral suvlar, shifobaxsh balchiq va boshqa vositalar bilan birgalikda davo, badan tarbiyasi ham qo'llaniladi, parxez ovqatlar beriladi, davo va dam olish tartibiga amal qilinadi. Sanatoriylar kurortlarda va iqlim tabiati sanitariya - gigiena sharoitlari qulay bo'lgan erlarda joylashadi. Masalan, Oqtosh, Chorvoq dam olish zonalaridagi sanatoriylar kabi. Bundan tashqari Chirchiq vodiysining o'zi yashab turgan iqlim sharoitlarida sog'lomlashtirish uchun noyob tabiiy iqlim omillariga ega bo'lgan sanatoriylar bor. Shuningdek, bu erda mineral suvlarning barcha turlarini o'z ichiga olgan boy gidromineral resurslar mavjud. "Chimyon" sanatoriyasida "Moqesti" suviga o'xshash sulfidli (vodorod sul'fidli) suv, "Chinobod "Turon", "Bo'ston", "Botanika" sanatoriylarida Saki, Evpatiriya kurortlarning suvidan qolishmaydigan, kam minerallashtirilgan gidrokorbanat, natriy xloridli suvi bor. Bu shifobaxsh suvlardan bemorlar ichadilar vanna, dush qabul qiladilar va davo

maqsadlarida foydalanadilar. Sanatoriylarda hozirgi kun talablariga javob bera oladigan davolash diagnostik bazasiga ega. Sanatoriylarda davolash diagnostika muolajalarini olib borish uchun malakali shifokorlar, tibbiy asbob uskunalar bilan jihozlangan xonalar va laboratoriyalar mavjud. Tibbiy yo`nalishga qarab sanatoriylar qon aylanish a`zolari, ovqat hazm qilish a`zolari, nafas olish a`zolari kasalliklari, moddalar almashinuvining buzilishi, asab buzilishi, tayanch xarakat a`zolari, endokrin kasalliklarini davolashga mo`ljallangan bo`ladi. Ularning ayrimlariga tadqiqot ishida to`liq ta`rif berib o`tilgan.

III bob. “Ўзбекистон табиий географияси ” fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

1. “Ўзбекистон табиий географияси” fanini o`qitish samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning o`rni.

Keyingi yillarda matbuotda, ilmiy adabiyotlarda, ko`plab anjuman va yngilishlarda, shu bilan birga rasmiy hujjatlarda „Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilgor pedagogik texnologiya”, “O`qitish texnologiyasi”, “Ta’lim texnologiyasi”, “An’anaviy pedagogik texnologiya”, “Noan’anaviy pedagogik texnologiya”, “Innovatsion (yangi yo`nalishdagi, tashqaridan yangi kiritilgan, yangiga o`xshash, noan’anaviy) pedagogik texnologiyalar” kabi tu- shunchalar uchrab turibdi. Pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik adabiyotlarda tez-tez qo`llanayotgani bois, unga bo`lgan fikr mulohazalar, munosabat va ta’riflar ham turlicha bo`lmoqda.

Geografiya fanlar tizimida texnologiyalaridan foydalanib mashgulotlarni tashkil etish dolzarb masala bo`lib, darslarni qiziqarli o`tishi uchun juda qulay. Chunki ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o`quv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan o`quv materialini o`zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikirlashga hamda o`z fikrini bayon etishga o`rgatishdir.

Bugungi kunda ta’lim texnologiyalarini tushunishning asosiy yo`li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o`zaro aloqani o`rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o`qitishdir. O`zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o`quv jarayonini to`liq qamrab olishi kerak.[20]

Geografiya fanida ta’lim texnologiyalarini qo`llashda muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt <sup>18</sup>ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va

²⁰ Hilqorova T., Tulenova X., “Turizm va uni o`qitish metodikasi” T.: “Iqtisod -moliya” 2007

malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma hamda malakalar darajasini baholash geografiya o`qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Педагогик ta`lim texnologiyalarini majburan qo`llash orqali maqsadga erishib bo`lmaydi. Aksincha, tajribali geogroflar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo`llanilayotgan ilgor texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o`quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta`lim – tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi ta`lim texnologiyalarni qo`llash borasida katta tajriba to`plangan bo`lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interaktiv metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo`llash ragbatlantiriladi.

Bundan tashqari geografiya ta`lim tizimlarini tashkil etishda rol o`yinlardan samarali foydalanishga ham katta e`tibor berilmoqda. O`yin ijtimoiy tajribani akkumilyatsiya qilish va uzatishdan iborat bo`lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normallari va qoidalari orqali etikaviy va faoliyat vazifalarini amalga oshirish vositalarini o`zlashtirishni ta`minlaydi. O`yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarni faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o`zlashtirishda bevosita ishtirokini ta`minlash orqali ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O`yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta`lim jarayonida rol o`yinlardan foydalanish tinglovchilarni o`yin muallifi, rolni ijrochisi faoliyatiga ko`ra tinglovchilarning faol pozitsiyaga ega bo`lishi o`yinda predmeti faoliyatni o`zlashtirishni tezlashtiradi. Rolli o`yinlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish emas, balki ijtimoiy va madaniy tizimni ham

modellashtirish mumkin. Rolli o`yinlarda doimo real hayotga yaqin bo`lgan inson hayotining har xil shart-sharoit modellari ishtirok etadi.

Rolli o`yinda ishtirokchilar faoliyati o`yin kompleksidan stimul oladi. Ishtirokchilar o`yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi. Buning uchun ularga hech kim yordam bermaydi. O`zlarini boshqarish va uyushtirishlari orqali natijalarga erishadilar. O`yinchilar boshqa ishtirokchilar yordamida o`yin reaksiyasini olishadi, murakkab vaziyatlar bilan bogliq o`yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni o`zlari qabul qilishadi. Rolli o`yinlar talabalarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

Rolli o`yin qoidaga ko`ra rahbar o`yin kompleksining bevosita ishtirokchisi bo`la olmaydi. U kadr ortidagi shaxs bo`lib qoladi. Uning vazifasi o`yin metodlari orqali ob`ektiv voqelikni belgilovchi shart-sharoitlarini yaratishi va qo`llab quvvatlashi mumkin (teatr personaji, gazeta maqolasi, xat, konferentsiya). Rolli o`yin boshqa o`yinlardan farqli maqsadi jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga asoslanadi.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash mumkinki, yuqorida aytib o`tilgan metodlardan foydalangan holda geografiya ta`limida darslarni tashkil etilsa, talabalarning ilm olishlari, o`z mutaxassisliklari bo`yicha bilimlarini yanada oshirishlari, bugungi kunga kelib ko`lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozini bartaraf eta oladigan, mustaqil fikrga ega bo`lgan mutaxassis kadrlar etishib chiqadi.

2. “Ўзбекистон табиий географияси” fanini o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifasi ta'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasalarining o`quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalarda tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantirish asoslari va o`qitishning interaktiv uslubidan foydalanishni kiritish bo'yicha katta amaliy ishlar olib borilmoqda.

Innovatsion ta'lim jarayonida bilim oluvchining faolligi tamoyili pedagogikada eng muhim tamoyillardan biri bo`lib kelgan. Uning mohiyati o`rganilayotgan predmetni ta'lim oluvchilar tomonidan maqsadli va faol qabul qilinishi, anglanishi, qayta ishlanishi va qo`llanilishidir.

Oliy ta'limda ta'lim olishning geografiya fanlarini o`qitishda faolligi, bu sohada ta'lim oluvchilardagi yuqori motivatsiya, ular tomonidan yangi bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish yohtiyoj sifatida qabul qilinishi, ta'lim jarayoni natijalari samarali bo`lishi bilan sifatlanadi.

Faollik insoning barcha faoliyat shakllarida mavjud. O`zgartirish faoliyati, bilish faoliyati, muloqot va boshqalar. O`z faoliyati natijasida atrofdagi olamda va insonning o`zida ma'lum o`zgarishlar sodir bo`ladi.

Masalan: Ma'lumki, talabalar har bir o`quv fani yoki biror fan doirasida o`rganilayotgan mavzuga bir xilda yondashmaydilar. Bunga ularning munosabatini qaysi ko`rsatgichlar orqali aniqlash mumkin?

Bilim oluvchilarning ta'limga bo`lgan munosabati aynan ta'lim olishdagi faollik bilan sifatlandi. Bu faollik talabani o`rganish predmetiga “kirib borishining” intensivligi va mustahkamligini belgilab beradi.

Pedagog geograflarning faollik tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlar orqali ifodalanadi:

- geografiya ta'lim vazifalarni bajarishga bo`lgan tayyorgarlik;
- mustaqil faoliyat olib borishga intilish;

- bajarilayotgan harakatlarni anglanganligi;
- faollik predmetiga yo`naltirilgan diqqatning mustahkamligi;
- o`z bilim darajasini yanada oshirishga intilish.

Demak bugungi kunda oliy ta`limda ta`lim mazmunini modernizatsiyalash, ta`lim sifatini oshirish, ta`limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo`naltirilgan ko`plab innovatsiyalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Lekin geografiya fanlar tizimida bu kamchiliklarni ko`rish mumkin. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko`p jihatdan oliy ta`lim muassasasida amalga oshirilayotgan inovatsion faoliyatning to`g`ri tashkil etilganligiga bogliqdir.

Mamlakatimizda oliy ta`lim sohalarida ham innoqatsion faoliyat to`g`ri tashkil etilib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida ta`limning sifat va samaradorligini oshirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan bir qancha ta`lim muassasalarida pedagogik innovatsion markazi tashkil etilidi. Buning asosiy maqsadi texnologiyalarni oliy, o`rta maxsus, kasb-hunar va umumta`lim muassasalarining o`quv – tarbiya jarayoniga tatbiq etish, kafedrlar va ilmiy – muammoviy laboratoriyalarning istiqbol va joriy rejalari, xalqaro va davlat grantlari hamda xo`jalik shartnomalari bo`yicha amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga keng joriy etish, mintaqaviy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ilmiy – tadqiqot ishlari natijalarini uzluksiz ta`lim tizimiga joriy etish, uzluksiz tarbiya va ta`lim sohalarida istiqboldagi rivojlanish jarayonini prognoz qilish, pedagogik diagnostika monitoringini yuritish, ma`naviy – ma`rifiy, milliy qadriyatlar, an`analar hamda kadrlar malakasini oshirish kabi sohalarda keng qamrovli ilmiy – amaliy faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta`limda pedagogik innovatsiya markazi ochilishi bilan universitetda ilgor innovatsion texnologiyalar asosida dars jarayonini tashkil etish bo`yicha namunali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Nizomiy nomidagi TDPU ning Tabiyot fanlari fakul'tetlarning dars o`tish xonalari texnik va estetik holati jihatidan talab darajasida tayyorlandi, auditoriyalar videoproekter hamda kompyuter texnikasi bilan ta`minlangan bo`lib, axborot texnologiyalaridan

foydalanib geografiya darslarini o`tishga moslashtirmoqda. Bular talabalarning sifatli va samarali bilim olishlarida asosiy texnik vositalar bo`lib hisoblanadi. Shuning bilan birga hozirda darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish, yosh geograf professor – o`qituchilarning metodik mahoratini oshirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Sababi hozirgi kunda ta`lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kuchayib bormoqda, bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rnatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o`zlari qidirib chiqishlariga o`rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi. Ta`lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o`quv yurtlarida malakali geografiya o`qituvchi kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o`qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Bunda innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Bunda innovatsion pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo`lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya`ni pedagogik ta`sir etish usullari bo`lib, ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O`qituvchi va talabaning maqsadi bo`yicha natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq. Ya`ni natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim

saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim, film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, o'qituvchi va talabaga bogliq.

Bundan tashqari o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

Geografiya o'qituvchisi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomondan bo'lajak darsni texnologik xaritasini har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanpng xususiyatidan, talabalarining imkoniyati va ehtiyojdan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunda geografiya fanlar tizimida texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilish kerak bo'ladi. Har bir darsni rang – barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bogliq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va pedagogik mahoratiga bogliq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchidan dars ishlanmani yozishga asosiy vosita bo'lib hisoblanadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi,

turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o'qishga, geografiya faniga, pedagogga o'zi tanlagan geografiya o'qituvchisi kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda geografiya o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma – xildir. Zamonaviy metodlar, geografiya fanlar tizimini o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik trenenglar, talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarni rivojlantirishga, raqobatbardosh, etuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassislarga kerak bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bunday o'qitish usullarini tashkil etish uchun pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart – sharoitlarga bogliq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama – qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyogarligi inobatga olinishi lozim.

Pedagogning innovatsion faoliyati – o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, geografiya ta'limida innovatsion faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammoni hal etish variantlarini shakllantirish, muammoni hal etishga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratib, tizimning alohida tarkibiy qismlaridagina emas, yaxlitlikda butun jarayonga doir muammolarni samarali hal etish imkonini beradi.

Hozirgi zamon ilm - fan taraqqiyoti, axborot muhitining kengligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanish sur'ati – ta'lim tizimiga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, uni jamiyat talablari va ¹⁹shaxs ehtiyojini hisobga olgan holda jahon standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishni taqazo etmoqda.

Bundan ko'rinib turibdiki, kelgusi taraqqiyotimizning asosi ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga bogliq. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlari ibratlidir:- “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bogliq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uygun holda olib borishimizni talab etadi”.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki pogona bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimi, ayniqsa, tabiiy geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur muammoni hal qilish uchun esa, geografiya ta'limida samarali metod va vasitalar, xususan, pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish lozim. [21]

Ma'lumki, tabiiy geografiya geografik qobiq va uning tarkibiy qismlari hamda tabiiy hududiy komplekslarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar haqida bilim beradigan fandır. Chunki bu fanni o'qish orqali o'quvchilar Er shari, alohida olingan materik va okeanlar, o'zi yashab turgan Vatani O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini chuqur o'rganadilar hamda

²¹ Egamov B., Abdusattorova G. “Sayohatni tashkil qilish” Toshkent “Ilm ziyo” 2009 yil

tabiiy unsurlarning bir-biriga uzviy bogliq va aloqadorlik qonuniyatlarini tushunib etadilar. Natijada tabiatni chuqur va xar tomonlama biluvchi uni tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanib, muxofaza qiluvchi, geografik madaniyatga ega, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'ladigan, mustaqil fikr yuritadigan, keng ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan vatanparvar yosh avlod voyaga etkaziladi.

Geografik bilimlar o'quvchilarga asosan dars jarayonida nazariy jihatdan beriladi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lgan yosh avlodni voyaga etkazishda nazariy jihatdan eganllangan bilimlarni amaliy mashgulotlar yordamida ko'nikma va malakaga aylantirish orqali erishishimiz mumkin. Egallangan bilimlarning ko'nikma va malakalarga aylantirishda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning imkoniyati katta.

Texnologiya tushunchasi dastlab Amerika va Garbiy Evropadan ta'limni isloh qilish bilan bogliq ravishda kirib keldi. B.Blum, J. Koroll, P.Ya.Gal'perin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov kabi ko'plab metodist olimlarning texnologiyalari mashhur.

«Ta'lim texnologiyasi» iborasi (inglizcha «an educational texnology») ta'lim jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish to'grisida ma'lumot beruvchi fan, ta'limot ma'nosini anglatadi. Ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasining ta'rifi hamda mohiyati borasida yagona goya, fikr mavjud bo'lmay, balki, bu nazariya mohiyatini yoritilishiga nisbatan turli yondashuvlar, ya'ni, V.P.Bespal'ko, I.P.Volkov, V.M.Shepel', V.M.Klarin, G.K.Selevko, YuNESKO, V.M.Maxanov va boshqa pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflar mavjud.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar sohasida 2000 yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o'quv qo'llanmalari nashr qilina boshlandi. Bu sohada B.P.Farberman, N.Saydaxmedov, J.G.Yo'ldoshev, F.Jumabaev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuxamedov, Sh.Abdullaev, J.O.Tolipova, A.T.Gofurov va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishdi.

Geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va geografik ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha I.V.Dushina, V.T.Dmitreva, A.N.Vorob'ev, O.A.Ushakova, N.V.Novenko, I.I.Barina, O.A.Baxchieva va boshqalar ish olib borishmoqda.

Hozirgi faqtda ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan keng qo'llanilmoqda.

Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, «qism», «blok» degan ma'noni bildiradi.

Mazkur darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati modullarning ketma-ket o'zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi.

Geografiyani o'qitishda moduli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlar asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Modulli ta'limning asosiy mohiyati, o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishishdir.

Modul dasturlari o'qituvchi tomonidan tuzilib, mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturlarining didaktik maqsadi, o'quvchilarning dars davomida bajaradigan o'quv faoliyati elementlari (O'FE), o'quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo'yicha berilgan ko'rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur texnologiya tabiiy fanlarni, xususan, geografiyani o'qitishda samarali usullardan biri hisoblanib, undan geografiya ta'limida foydalanish yaxshi natija beradi.

O'zbekistonning umumiy tabiiy geografik sharoitini modulli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda o'rganishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modul dasturi asosida tashkil etish orqali yuqori natijalarga erishishimiz mumkin. Bunda, o'quvchilar o'quv materialini modul dasturidan o'rin

olgan o`quv topshiriqlarni bajarish orqali mustaqil o`zlashtiradilar, amaliy topshiriqlarni bajaradi va u o`quv faoliyatini sub'ektiga aylanadilar. Berilayotgan mavzuga oid amaliy topshiriqlar moduli texnologiyaga asoslangan holda ma'lum ketma-ketlikda, izchillikda va kichik blok (qism)lar tarzida olib boriladi. Geografiya darslarida o`qitishni moduli texnologiya asosida tashkil etish va unda amaliy topshiriqlarni turli usullar yordamida berib borish orqali ko`zlangan maqsad samaradorligiga erishish bilan birgalikda o`quvchilarning fanga bo`lgan qiziqishini oshiradi, ularda o`z-o`zini nazorat qilish va to`gri baholashni shakllantiradi.

Geografiya darslarida ta'lim texnologiyasidan foydalanganda o`qituvchi o`quv materialini modullarga ajratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi, o`quv va amaliy topshiriqlarini aniqlaydi. Mashgulot yuzasidan nazorat test topshiriqlarini tuzadi. O`quvchilarning mustaqil o`quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi. Modul dasturidan o`rin olgan har bir kichik modul yakunida o`quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o`tkazadi.


Geografiya o`qituvchisi tomonidan baholash haqida so`z borganda bu texnologiyadan foydalanib tashkil etilgan darsda hech bir o`quvchi amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida «qoniqarsiz» baho olmaydi. Agar o`quvchi noto`gri javob bersa, o`qituvchi va o`quvchilar yordamida qaytadan to`gri javob berishga harakat qiladi. Natijada o`quvchida o`qituvchiga va fanga bo`lgan salbiy munosabat yuzaga kelmaydi. Aksincha teran va aniq fikrlashga, o`z xatosini to`griylashga harakat qiladi.

Tajriba sinov ishlari Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya o`qitish metodikasi" ta'lim yo`nalishining 301-302 guruxlarida olib borildi. Guruxlarda o`tkazilgan so`rovnomalar natijasiga ko`ra sifat ko`rsatgichi 301- guruxda 70,5 % ni tashkil kildi, 302 guruxda 71 % ni tashkil kildi. Tajriba –sinov natijalariga ko`ra tajriba –sinov guruxida samaradorlik 4,5 % ga ko`tarildi. O`zbekiston tabiiy

geografiyasi fanidagi “O‘zbekiston tabiiy geografiyasining o‘rganish ob’ekti ” mavzusida va “Farqona” mavzularini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar tashkil qilindi. Ushbu guruxlarda o‘tkazilgan darslarda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qator metod va usullarini dars davomida ko‘llab, fan bo‘yicha o‘qitish samaradorligiga erishildi.

Гуруҳлар	Талаба сони	Тажриба-синов ишлари аввалида сифат кўрсатгичи %	Тажриба-синов ишлари аввалида сифат кўрсатгичи %
301	30	70,5	75
302	32	71	72

Улардан Блиц-сўров, биргалида ўқиймиз, кластер, ҳамкорликда ўқитиш (3x4) техникаси, тақдимот методларидан фойдаланилди.Ўтказилган дарслар бўйича дарс ишланмалари илова қилинмоқда.(1-2 илова)



1.Тажриба-синов ишлари натижалари диаграммаси

3. Chirchiq vodiysida turistik marshrutlarni uyushtirish va yo`nalishlarini tashkili etish metodikasi

Dala sharoitida o`quv mashgʻulotlari universitet auditoriyalarida olib boriladigan ma`ruzada yoki seminar mashgʻulotlarining mantiqiy davomidir. Shunday bo`lsada dala sharoitida olib boriladigan mashgʻulotlar tashkiliy ko`rinishlari, dastlabkisidan birmuncha farq qiladi. Xususan uyushtiriladigan ekskursiyalarning murakkablik darajasi, maqsadi, mazmuni, ularni tashkil etishdan kutiladigan natijalar, marshrut davomida o`rganilgan geografik nuqtalarning tafsilotlari, yigilgan ilmiy ma`lumotlarni qayta ishlash kabi mashgʻulotlarni faqat dala sharoitidagina amalga oshirish mumkin.[22]

Dala amaliyoti o`quv bazasiga tashrif buyurishgan talabalar, o`qituvchilar va baza rahbarlarining ko`rsatmalari asosida yotoq xonalariga joylashadilar. Shu bilan birgalikda tushlik uyushtiriladi va istiroxat uchun soat 17:00 ga qadar vaqt ajratila<sup>20</sup>di. Soat 17:00 da barcha talabalar o`qituvchilarining ishtirokida o`tkazilishi lozim bo`lgan yiginga taklif etiladi. Ushbu yiginda amaliyot rahbari yana bir bora lagerdagi ichki-tartib qoidalar bilan tanishtirgach, ertasi kuni amalga oshirilishi lozim bo`lgan topshiriqlar tartibini tushintiradi. Shu tariqa dastlabki kuni amaliyot o`tash uchun maxsus ekskursiyalarga chiqilmaydi, aksincha talabalar lager sharoiti bilan tanishib, ozadalik va obodonchilik ishlari bilan shugullanishadi. Bu holat talabalarni mahalliy tabiiy sharoitga moslashuvni ta`minlaydi.[23]

Dala amaliyoti o`tkaziladigan ikkinchi kundan boshlab maxsus ekskursiyalar uyushtirish mumkin. Ekskursiyalar maqsad va davomiylik darajasiga ko`ra ikki guruhga bo`lishadi: a) sodda ekskursiyalar b) murakkab ekskursiyalar.

a). *Sodda ekskursiyalar.* Ushbu turdagi ekskursiyalar davomliligiga ko`ra atiga 3-4 soatni o`z ichiga qamrab oladi. Bu vaqt davomida talabalar o`qituvchi

²²Shorahimov Sh. "Afrosiyobga sayyohat", "Yosh gvardiya" T.: 1979 yil

²³ Shuls V. "O`rta Osiyo gidrografiyasi". Toshkent "Fan" . 1967 yil

boshchiligida 5-6 km. ga qadar bo'lgan masofani bosib o'tib, kerakli bo'lgan geografik nuqtalarni o'rganadilar, tog jinslaridan namunalar oladilar, o'qituvchi tomonidan berilgan bu tushunchalarni kundalik daftarlariga qayd etgan holda, chizmalar chizadilar, o'lchov ishlarini olib boradilar. Yo'lga chiqqan guruh, ko'rsatilgan vaqtda ya'ni 12⁰⁰ atrofida lager hovlisiga kirib kelmoqlari shart. Sodda ekskursiya davomida talabalar qiynalmasliklari, qo'shimcha muomilalar ortirmasliklari uchun safar uchun mos kiyinishiga, maxsus idishlarda ichimlik suv, dala sumkasi yoki ryukzakda kundalik daftar, ruchka, qalam, o'lchagich-metr kabi eng zarurat o'quv qurollarini shay tutmoqlari lozim bo'ladi.

b). *Murakkab ekskursiyalar.* Bu turdagi ekskursiyalar ertalabdan kechgacha qadar davom etishligi mumkin. Shu boisdan murakkab ekskursiyalar uyushtirilishidan bir kun oldin, u o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi. Maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Ushbu tayyorgarlikning negizida ertaga tashkillashtirilishi ko'zda tutilayotgan safar uchun kerakli o'quv qurollari, maxsus asbob-uskunalar ekskursiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda, masalan ichki suvlarini o'rganish uchun suv harakatini o'lchash uchun termometr, metr, vertushka v.h., oziq-ovqat, choy qaynatish uchun idish, pichoq, gulxan yoqish uchun gugurt, arqon, issiq kiyim chunki balandlikka ko'tarilgan sari havo salqinlasha boradi, fotoaparat, karta, birinchi tez yordam vositalari va.h. buyumlar taxt holga keltirilib, maxsus safar xaltalarga joylab qo'yiladi.

Murakkab turdagi ekskursiyalar davomida talabalar turli transport vositalari (avtomobil, ot, eshak va.h.)dan foydalanishlari ham mumkin. Eng asosiysi manzil uzoq (15-20 hatto 30-40 km) bo'lganligi tufayli tushlik safar davomida, yo'l-yo'lakay qilinadi va faqat kechgacha yaqin dala amaliyoti o'tilayotgan markaz-lagerga qaytib kelinadi. Chunki tunash uchun safar qatnashchilari albatta lagerni mo'ljalga olishlari lozim bo'ladi. Murakkab turdagi ekskursiyada qatnashuvchi talabalarga ikkita o'qituvchining qatnashishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birgalikda murakkab turdagi ekskursiyalarga chiqishdan bir kun oldin o'qituvchi (o'qituvchilar) barcha qatnashchilarni yigib ularning burchlari va

vazifalari qayta eslatiladi. Barcha jihozlar va kerakli buyuumlarning tayorgarligi ko'zdan kechiriladi. Shuningdek kasalmand yoki ba'zi sabablarga uzoq safarga tayyor bo'lmagan talabalarning ekskursiyada ishtirok etmasdan, lagerda qolishligi e'lon qilinadi. Safar qatnashchilarini umumiy qoidalariga amal qilish, marshrut davomida bir-birlariga mehribon, ahil bo'lishlikka chaqiriladi.[24]

YO'lda yurish qoidalari. Safarning ko'ngilli o'tishi, o'z maqsad vazifasiga to'la erishishi, safar qatnashchilarining yo'lda yurish qoidalariga to'la amal qilishlari bilan chambarchas bogliqdir.

Sodda ekskursiyalar garchand odatdagidek 8⁰⁰ da lager hovlisida yigilgan holda, o'qituvchi tomonidan yo'qlama qilishdan boshlansa,²¹²² murakkab turdagi ekskursiyalarni vaqtdan yutish uchun birmuncha erta (bu vaqt safarning davomligiga binoan qatnashchilar tomonidan kelishilgan holda kechqurun belgilanadi) boshlanishi ham mumkin.[25]

Marshrut davomida yurish tezligi o'qituvchi (o'qituvchilar) tomonidan manzilning uzoq-yaqinligiga mos ravishda belgilanadi. Qanday bo'lganda ham safar davomida piyoda yurish iloji boricha bir xil tezlikda amalga oshirilmogi lozim. Chunki bu tadbir nafas olish maromining buzilmasligini, yurak urish tezligining o'zgarmasligini va pirovardida safar qatnashchilarining toliqmasligini ta'minlaydi. Uncha baland bo'lmagan tog yoki adirlar bo'ylab yurish tezligi o'rtacha holatda, ya'ni soatiga 4-5 km. ni tashkil qilmogi lozim. Safar davomida qisqa muddatlarda dam olish yo'lining tik yoki yotiq yonbagir bo'ylab o'tganligi yoki murakkab sharoit (qiya, jarlangan notekis yonbagir va.h.) bilan boglanganligiga bogliq. Bunday holatlarda, hamda talabalarning yo'lda yurish jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib har 25-30 minut davomida 8-10 minut dam olish maqsadga muvofiq.

Tik yonbagir bo'ylab ko'tarilayotganda esa odatda ma'lum manzilga etgunga qadar dam olmasdan, bir me'yorda qadam tashlab, egri-bugri (ilon izi

24 Tuxliev N., Abdullaeva T. "Ekologicheskiy turizm: sushnost', tendentsii i strategiya razvitiya" T.: "O'zbekiston milliy entslopediyasi", 2006 yil

25 Nigmatov A. Shomurodova N. "Ekoturizm asoslari" T. "Turon iqboli" 2007 yil

yoki zigzak usuli) yo`l solib yurish erta toliqishning oldini oladi. Chunki dam olmasdan bir me'yorda qadam tashlash yurakning mo`'tadil ishlashini ta'minlaydi va natijada organizm tez charchamaydi. Aksincha tez-tez dam olish esa yurakning bir me'yorda ishlash ritmini buzadi va organizm tez toliqadi.

So`qmoqlar bo`ylab yurishda ham ma'lum tartibni buzmasdan, shoshilmasdan qadam tashlash lozim bo`ladi. Odatda so`qmoq bo`ylab bir qator hosil qilib, ya'ni tizilgan holda, har-bir talaba oraligida 2-3 m masofani qoldirib yurish havfsizlikn<sup>23</sup>i ta'minlaydi. Chunki yo`l bo`ylab uchrovchi tikanakli butalar, zaharli giyohlar, tosh to`siqlar uchrashi tog sharoitida odatiy hol. Bunday sharoitda kerakli 2-3 m masofani saqlamaslik ko`ngilsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birgalikda safar qatnashchilari harakat davomida shovqin solmasliklari, ko`p gapirmasliklari (chunki ko`p gapirish organizmni toliqtiradi), daraxt va buta shoxlarini sindirmasliklari, o`tloqlarni payxon qilmasliklari, ko`chib ketishi mumkin bo`lgan toshlarga beparvo bo`lmasliklari lozim. Chunki joyidan qo`zgalgan kichik xarsang, quyida katta tosh ko`chkilarining shakllanishiga sababchi bo`ladi. Bu holat esa quyida o`tlab yurgan chorva mollari, dam oluvchilar yoki aholi punktlariga katta zarar etkazish, hatto fojia bilan tugallanishi mumkin. Ayniqsa balandlik ko`tarilishi, qiyaliklarda yurish, pasga qarab yurish davomida ushbu holatlarni keltirib chiqarmaslikka astoydil harakat qilish lozim bo`ladi.[26]

Umuman aytganda tepaliklarga, cho`qqiga ko`tarilish, qiyaliklarda yurish, pastga tomon harakatlanish, jarliklardan o`tishda ayrim yurishning texnik qoidalariga rioya qilmasdan yaxshi natijalarga erishish qiyin. Xususan balandlikka tomon harakatlanayotganda, ayniqsa yon bagir tik bo`lgan holatda oyoqlarni birmuncha yon tomonlarga yozish, gavgani oldinga engashtirish, qo`llarni erkin holda saqlash, shuningdek nafas olishni me'yorda saqlash lozim bo`ladi. Ayniqsa tik yon bagirga to`gridan-to`gri ko`tarilish ogir kechadi, har-bir ortiqcha harakat, noto`gri tashlangan qadam ekskursiya qatnashchilarining tez toliqishiga sababchi

²⁶ Hayitboev R. Sattarov A. "Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi" Samarqand – 2009 yil

bo`lishi mumkin. Shu boisdan tik yon bagirga egri-bugri, ilon iziga monand harakat qilib yo`l solish maqsadga muvofiqdir. Marshrut qatnashchilarining barchasida hassa-tayoq tutmogi va undan omilkorlik bilan foydalanishni bilmogi lozim. Chunki yo`nalish qiya bo`lsa, chap (o`ng) oyoq tomonga govdani birmuncha egib va qo`lga hassa-tayoq tutgan holda unga tayanib yurish foydadan holi emas. Hassa ²⁴yordamida yo`lda uchragan to`siq (tikanakli buta, jilga, jarlik, ayrim zaharli hashorat yoki ilon, chayon kabi jonivor)larni bartaraf etish chetga surish, kechib o`tish, tushish, chiqish engil kechadi.[27]

Tik bo`lgan yon bagirdan tushishda yon tomonlab tushish yoki eng afzali engil harakatlar bilan qo`sh oyoqlab (echki bolasining harakatiga monand bo`lgani uchun bu yurish usulini “uloq”cha deya ataladi) sakrab-sakrab yurishdir. “Uloq”cha yurish ham hamisha ish beravermaydi. Bu hol xarchand 300-500 m oraliqdagi masofalarda yaxshi natija bersada, undan uzoqroqqa cho`ziluvchi masofalarda har qanday chiniqqan vujudni ham toliqtiradi. Shu boisdan davomli tarzda cho`zilgan yon bagirlardan sakrab tushish bilan birgalikda, oddiy ilon izi tarzida egri-bugri yo`l solib tushish ham samarali kechadi. Ayniqsa maysa va o`tlar butazorlar to`liq o`sgan yon bagirlar bo`ylab oxirgi bayon etgan holat bo`yicha harakatlanish maqsadga muvofiqdir.[28]

So`qmoqlar qumloq, sirpanchiq bo`lgan holatda harakatlanish yanada murakkablashadi. Shu boisdan bunday holatlarda harakatni birmuncha sekinlashtirib, masofani qo`ldagi tayoq-hassalardan unumli foydalangan holda so`qmoq chetida chiqib turgan butalar, daraxt ildizlari, qoyatoshlardan omilkorlik-tadbir bilan foydalanish zarur bo`ladi.

Tik qiyalik yon bagirlarni, davonlarni, jarliklarni kesib o`tishda, tabiiy tayanch vosita (buta, daraxt ildizlari, yoriq va.h)lar bo`lmagan holatda guruh rahbari maxsus tayyorlab qo`yilgan arqonlardan foydalanish taklif etishi lozim. Safarda Arqondan foydalanish juda samarali natija beradi. Buning uchun

²⁷ www.ziyounet.uz www: press – service. Uz

28Эгамов Б. “Таълимда тоғ туризми”. Тошкент “Илм зиё” 2009 йил 159 б.

arqonning uchi qatorning eng boshida ketayotgan talabada, oxiri esa eng keyinda kelayotgan talabaning qo`lida bo`ladi. O`rtadagilarning barchasi qator tizilgan va 2-3 qadam oraliq tashlagan holda ketma-ket harakatlana borib to`siqlarni engib o`tadi.

Harakatlanish mobaynida kichik va hatto dam olishni tashkil etish mumkin. Kichik dam olishni yo`lning sodda yoki murakkabligi, harakatlanishning engil yoki ogiriligiga ko`ra o`rtacha har 30-40 minut oraligida tashkil etish mumkin. Dam olish muddati 5-10 vaqt, bemololroq bo`lsa 15-20 minut atrofida kechadi. Kichik dam olish mobaynida safar xaltalarni echmasdan, o`tirish uchun qulay, zax bo`lmagan quruq joylar tanlanadi. Havo harakati baland bo`lgan holatlarda soya-salqin joylarni tanlash mumkin. Katta dam olish muddati esa har 60-90 minut mobaynida qaytariladi va 20-25 minut davom etishi mumkin.

Har ikkala dam olish paytida ham ekskursiya qatnashchilari quyidagi holatlarga qat`iy amal qilmoqlari lozim bo`ladi:

- dam olishni va dam olish nuqtasini rahbarligi ostida tashkillashtirish;
- to`xtash haqida buyruq olgan talabaning daraxtda o`tirish lozim bo`lgan joyning holatini ko`zdan kechirish, toki mo`ljallangan joyning zah, zaxarli hashorat va jonivor (qoraqurt, biy chayon, buzoqboshi ilon)lardan holi ekanligiga ishonch hosil qilish;
- harakatlanishdan keskin to`xtagan vujudning birdan sovishiga yo`l qo`ymaslik ya`ni terlab turib echinmaslik;
- yurishdan to`xtagandan keyin ham, birmuncha (1-2 minut) muddat qo`l oyoqlarni harakatlantirib keyin o`tirish, toki yurak va o`pka faoliyatini²⁵ keskin o`zgarishiga yo`l qo`ymaslik, chunki bu holat vujudning tez toliqishi va zo`riqishiga sabab bo`lib, pirovardida kasallanishiga zamin yaratadi;
- juda toliqqan holatlarda esa oyoqni yuqoriga tomon uzatib va tananing bosh qismini quyiga tomon ushlagan holda dam olish, tadbiri (o`tirish,

²⁹ Хошимов М.А. Кучерявих В.И. “Табитанинг нодир сайргохлари” Т.: “Меҳнат”. 1991 й

yotish) tanada qon aylanishning me'yoriy holatini tiklashga yordam beradi; qizib suv ichish, cho'milish, hatto yuzni yuvish qat'iyan man qilinadi.

tushki dam olish va ovqatlanish uchun odatda sersoya suv manba'i (buloq, daryo, ko'l sohili) yaqin bo'lgan joy tanlanadi. Yasama o'choq (toshdan tushlikda ham sovuq, tog daryosining suvidan ichish maqsadga muvofiq emas), konservalar ilitilishi, hatto engil sho'rva qaynatish mumkin. Chunki sifatli tushlik, marshrutning engil o'tishiga kafolat beradi.

Tushlik 1,5 – 2 soat davom etishi mumkin. Tushlik tugagach barcha chiqib (bo'shagan konserva qutilar, qogoz, elim xalta va.h.) bir joyga yigib ko'miladi va gulhan, o'choqdagi o't o'chirilib, guruh yana o'z yo'lida davom etadi.[29]

Ekskursiya tushlikdan keyin ham shu tariqa davom etadi. Odatdagidek o'qituvchi yo'l boshlovchi sifatida, qatorning oldingi qismida harakatlansa, eng orqada esa baqquvat va yurishlarda birmuncha tajriba ortirgan talaba yuradi. Ekskursiya davomida nimjonroq talabalar toliqsa yoki o'zini yomon his qila boshlasa, oldida ketayotgan o'qituvchiga darhol xabar beriladi. Bu holatda barcha guruh a'zolari harakatlanishdan to'xtaydi. Har qanday sharoitda ham kasal yoki toliqqan talabani yo'lda yolgiz qoldirish yoki uni hamroxsiz orqaga qaytarib yuborish qat'iyon taqiqlanadi. Eng ma'qul variant toliqqan talaba, bir-necha soglom talaba bilan guruh qaytgunga qadar shu erning o'zida qoldiriladi. Agar birinchi tibbiy yordam zarur bo'lgan holat yuz bersa (shikastlansa, ko'zi tinib, boshi aylansa va.h.) avvaldan tayorlangan aptechkalardan foydalangan holda unga ko'mak beriladi.

Harakatlanayotgan guruh yo'lda uchragan tirik yirik soylik yoki tezoqar daryolarni kechib o'tmaslik yo'lini tutishligi, buning uchun kechuvga oid mavjud bo'lgan joylarni tanlashlari lozim. Ekskursiya mobaynida yo'lda uchragan ko'l va daryo suvida cho'milish maqsadga muvofiq emas. Chunki, birinchidan harakatlanish mobaynida qizigan vujudga tog ko'li yoki daryosining sovuq suvi salbiy ta'sir etadi, ikkinchidan esa tezoqar daryo suvi suzishni yaxshi

o`zlashtirgan sportchiga ham bo`ysinmasligi mumkin. Soylikni kechib o`tish o`ta zarur bo`lgan holatda oyoq kiyimlarni echmasdan (chunki daryo suvi toshlarni oqizib oyoqni shikastlantirishi mumkin, layang oyoq suv kechilganda sirpanish, yigilish xavfi kuchayadi), arqondan foydalangan holda juda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish mumkin.

3-боб юзасидан хулоса

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi uchun dastlabki pogona bo`lgan umumiy o`rta ta'lim tizimi, ayniqsa, tabiiy geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammosi dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur muammoni hal qilish uchun esa, geografiya ta'limida samarali metod va vasitalar, xususan, pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish lozim.

Tajriba sinov ishlari Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya o`qitish metodikasi" ta'lim yo`nalishining 301-302 guruxlarida olib borildi. Guruxlarda o`tkazilgan so`rovnomalar natijasiga ko`ra sifat ko`rsatgichi 301- guruxda 70,5 % ni tashkil qildi, 302 guruxda 71 % ni tashkil qildi. Tajriba –sinov natijalariga ko`ra tajriba –sinov guruxida samaradorlik 4,5 % ga ko`tarildi. O`zbekiston tabiiy geografiyasi fanidagi "O`zbekiston tabiiy geografiyasining o`rganish ob'ekti" mavzusida va "Farfona" mavzularini o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar tashkil qilindi. Ushbu guruxlarda o`tkazilgan darslarda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qator metod va usullarini dars davomida ko`llab, fan bo`yicha o`qitish samaradorligiga erishildi

Chirchiq vodiysi turistik resurslari asosida uyushtirilgan turlar jadvali Ilova

2- jadval

№	Balandlik mintaqalari	Yo`nalish o'tgan hududlarning nomi	Yo`nalishlar tartibi	Yo`nalishlarni tashkil etuvchi asosiy nuqtalari	Yo`nalishlar bo`ylab turistik remsurslarning geografik tarqalish xususiyatlari	Yo`llarning tarixiy -geografik ko`rsatgichlari	Yo`nalishlarning toifalari
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Adir (400-500-1200m.)	Garbiy Tyanshan tog oldi hududlari	1	Toshkent-Chirchiq-Gazalkent-Xo`jakent-Chorvoq-Nanay	To`lqinsomon rivojlangan, soy va jilgalar bilan kuchli parchalangan tipik adirlar landshafti. Shuvoq, yantoq, quvray, oq quvray, qo`ziquloq, karak o`suvchi keng yaylovlar bahor oylarida lolaqizgaldoq, chuchumoma, bo`tako`z, oqbosh, gulhayri, chitir va boshqalar	Qadimgi karvon yo`llari adir mintaqasini murakkb rel'ef xususiyatiga ko`ra chetlab o'tgan ammo mashhur diniy rahnamolar, mashhur olimlar davlat arboblari, sarkardalar, mashhur sayohatlarning qadamjolari bo`ylab o'tgan.	Sodda marshrutlar . Sport malakasiga ega bo`lmas qisman jismoniy tayyorgarligi ma'lum bo`lgan turistlar uchun mo`ljallangan.
			2	Toshkent-Ohangaron-Angren-chinor			
2	Tog (1200-	Garbiy Tyanshan	3	Nanay-Ispay-Takayongoq-Pskom	Tektonik harakatlar va oqar suvlar ta'sirida kuchli parchalangan,	Aksariyat hollarda mahalliy	Murakkab marshrutlar

	2700 m gacha.)				murakkab rel'efli hududlar bo'ylab rivojlangan tog landshafti.	ahamiyatga ega bo'lgan, tabiiy ravishdagi tosh-qum qoplamali, diltortar ko'rinish kasb etuvchi. Ekzotik xususiyatlarga boy bo'lgan yo'llar bo'ylab uyushtirilgan turlar	
3	Baland tog (2700 va undan yuqori)	Garbiy Tyanshan	4	Piskom –Oygain ko'li	Juda murakkab tog rel'efi kuestalar, kononlar, trog, sirtlar bilan xususiyatlanganligi holda, karbonotli kars hosilalarni e'tiborli tus oladi. Hudud aksariyat hollarda qor bilan qoplanib yotadi. Tez tez kichik tog muzliklari uchraydi.	Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tog so'qmoqlari, ba'zan tik yon bagirlar bo'ylab o'tgan osma yo'llar garoyib ostonalar bo'ylab o'tadi.	O'ta murakkab marshrutlar . Maxsus sport malakasiga ega bo'lgan jismoniy yaxshi chiniqqan turistlar uchun mo'ljallangan faqat ulov yura oladigan turlar
			5	Piskom-Ixnach ko'l			

Xulosa.

Chirchiq vodiysi O'zbekistonning eng shimoli – sharqiy hududlarni tashkil etgan holda, boy turistik tabiiy resurslarga egadir. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida aynan shu holat ya'ni Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlari va ularni oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlar uchun o'qitish metodikasi o'rganiladi. Shu boisdan tadqiqotning mazmuni Chirchiq vodiysi tabiiy geografik komponentlarning hamda ayrim sog'lomlashtirish, dam olish – rekratsiya markazlarining muhim turistik resurslar sifatida o'rganilishi talqin etiladi. Shu bilan birgalikda ushbu magistrlik dissertatsiyasida turizmning fan sifatida shakllanish xususiyatlari, turizmni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xujjatlar asosida rivojlantirish masalalari, turizm faniga oid tayanch iboralar tavsifi, turistik resurslarni tasniflash kabi masalarlar o'zni olgandir. Chunonchi ushbu masalalar bir qadar yosh va endi rivojlanishiga yuz tiktgan turizm fanini o'rganishning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan birgalikda ushbu tadqiqotning mazmuni Chirchiq vodiysida mavjud bo'lgan geologik ahamiyatga ega bo'lgan turistik ob'ektlar tavsifi muhim o'rin olgandir. Ushbu turga turli tarzda shakllangan tog qismlari qatlamlari, ularning burmalanish xususiyatlari ta'riflanar ekan, ushbu nuqtalar turizm uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi ochib beriladi.

Chirchiq vodiysining geomorfologik turdagi turistik ob'ektlari qatoriga er yuzasining garoyib shakllari, er osti landshaft ko'rinishlarini o'zida mujassam etuvchi o'nlab gorlar tavsifi keltirilgan.

O'rganilayotgan hudud gidrologik turga xos tabiiy turistik resurslarga ham juda boydir. Ushbu tur patomik hamda limnologik turchalari bilan xususiyatlanadi. Patanomik turchalarga daryolar, soylar va ular bilan bogliq holda shakllangan xushmanzara daryolar, soylar va ular bilan bogliq holda shakllangan xushmanzara go'shalar, sharsharalar, daryo – soylarning so'lim sohillari mansubdir. Ushbu tadqiqotda Chirchiq vodiysiga xos o'ndan ortiq sharsharalar tavsifi, ularning turizimdagi ahamiyati o'rganilgan.

Chirchiq vodiysining limnologik turchalarga xos tabiiy turistik resurslari turkumiga hududda mavjud bo'lgan buloqlari, yo'llari, suv omborlari mansubdir. Ushbu tadqiqotda limnologik turchalar tavsifi ham tadqiq etilib, ularning turizm ahamiyati ochib berilgan.

Chirchiq vodiysining o'ziga xos tabiiy geografik sharoiti mahsuli sifatida, bu erda turlicha o'simliklar olami shakllanganni, natijada ular qiziqarli turistik ob'ektlar tarzini olgandir. Jumladan tog archazorlari, O'zbekiston hududining o'zga hududlarda uchramaydigan oq qayinzorlari, sun'iy tarzda tashkil etilgan bog va hiyobonlari, bu erda o'suvchi yuzlab turdagi noyob manzarali va mevali daraxtlarni turizm ixlosmandlarining diqqat e'tiborini tortadi. Shu boisdan ularni ushbu tadqiqotda botanik turdagi resurslarga mansub holatga tadqiq etilishi qiziqarli ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Chirchiq vodiysining qulay tabiiy geografik sharoiti bu erda qadimgi davrlardan buyon inson yashashai uchun muhim omil tarzida ishtirok etgan. Shu boisdan o'rganilayotgan hududda ibtidoiy jamoa tuzumi davriga xos manzilgohlar shakllangan. Ulaning aksariyatini tabiiy boshpana o'rnini o'tgan karst gorlari va ularning tevarak atroflarida qaror topganligi turizmda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.ay niqsa karst gorlariga xos tarixiy geografik manzillar turistlar oqimini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Chirchiq vodiysining so'lim tabiati turizmda muhim rekratsiya ahamiyatiga egadir. Chirchiq vodiysida Toshkent, Chirchiq, kabi yirik aholi markazlarining mavjudligi aholining rekratsiya maydonlariga bo'lgan talabini yanada oshiradi. Shu boisdan Chirchiq vodiysidagi har bir so'lim, diltortar go'shalar rekratsiya ahamiyatiga ega bo'lgan tarzda qadrlanadi. Bu holat ushbu tadqiqotning mazmun mohiyatiga chuqur singib kirganligi bilan xususiyatlidir.

Bir so'z bilan aytganda Chirchiq vodiysining turistik ob'ektlari kundan – kunga rivojlanayotgan, unga bo'lgan talab kuchayotgan bir davrda nihoyatda muhim ilmiy – amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ushbu magistrlik ishi bu yo'lda qilingan eng dastlabki tadqiqotlardan biridir. Uni yanada davom ettirish

turizmni fan sifatida rivojlantirish bilan teng boʻlgan holda hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholining bandlik darajasini taʼminlash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

O`zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonun Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to`plami. “Sharq” 2001 y
2. O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni 1997 yil 29 avgust Toshkent “O`zbekiston”. 1997 y
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug`anovich Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sesseyasidagi ma’ruzasi. T., “O`zbekiston”, 1993,

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 4.I.A.Karimov “O`zbekiston o`z taraqqiyot yo`li”. T.: “O`zbekiston”, 1992 yil
- 5.I.A.Karimov “Istiqlol yo`li: muammolar va rejalar” T.: “O`zbekiston”, 1992 yil
- 6.I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod vatan qolsin” (– T.: “O`zbekiston”, 1996),
- 7.I.A.Karimov “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” (–T.: “O`zbekiston”, 1996),
- I.A.Karimov “Bunyodkorlik yo`lidan” (–T.: “O`zbekiston”, 1996),
- 8.I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari”,
- 9.I.A.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi” (–T.: “O`zbekiston”, 1997),
- 10.I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi”, “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida” (–T.: “O`zbekiston”, 1998),
- 11.I.A.Karimov “Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz” (–T.: “O`zbekiston”, 1999),
- 12.I.A.Karimov “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz” (— T.: “O`zbekiston”, 2000),

Asosiy adabiyotlar

13. Abdumalikov R. "Sayohat sahifalari" – T.: "Yosh gvardiya" 1970 yil
14. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". T.: "O'qituvchi", 1996 yil. 3-5, 135-147b.
15. Bogdanov O.M. "Животные Узбекистана" Tosh.Fan. 1981 yil
16. Dolimov N. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". Toshkent "Fan", 1987 yil.
17. Ratsen V.I. "O'rta Osiyoni kechganda". - T.: "O'zbekiston", 1972 yil
18. Soliev A., Usmanov M. "Turizm geografiyasi" (Samarqand viloyati timsolida) Samarqand SamDU 2005 yil.
19. Loginov L.M. Ruxlov Yu.V. Istoriya razvitiya turistko-ekskursionnogo delp. – M.: "Turist", 1998 yil. 75-61-b.
20. Mamatqulov X.M. Bektemirov A.B. Xalqaro turizm "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" T.: 2009 yil. 190 b.
21. Mirzaev M.A. Alieva I.T. "Turizm asoslari" TDIU bosmaxonasida bosilgan. T.: 2007 yil 320 b.
22. Nigmatov A. Shomurodova N. "Ekoturizm asoslari" T. "Turon iqboli" 2007 yil 127 b.
23. Nizomov N. "O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi" T.: 2008 yil 8 b.
24. Poslavskaya O.Yu. Atadjanov I.M. "Po podzemnomu tsarstvu Uzbekistana", "O'zbekiston" T.: 1987 yil. 111 str.
25. Narziqulov A. "Dehqon taqvimi" T.: "Mehnat" 1992 yil
26. Tuxliev N., Abdullaeva T. "Ekologicheskiy turizm: suщnostь, tendentsii i strategiya razvitiya" T.: "O'zbekiston milliy entslopediyasi", 2006 yil.
27. Hoshimov M.A., Zubaydullaeva M.A. "Transprot xizmatiga bogliq shakllanuvchi turizm turlari" Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Samarqand – 2009 yil 43 b.
28. Hoshimov M.A. "Speleoturizm" Samarqand. "Zarafshon" nashriyoti 2009 yil. 143 b.

- 29.Hoshimov M.A. “O`zbekiston ekologik turizmi” Samarqand. “Zarafshon” nashriyoti 2009 yil 220 bet.
30. Hayitboev R. “Turizmning maxsus turlari” Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Samarqand – 2008 yil 45 b.
- 31.Hayitboev R. Sattarov A. “Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi” Samarqand – 2009 yil 87 b.
32. Hoshimov M.A. Kucheryavix V.I. “Tabitaning nodir sayrgohlari” T.: “Mehnat”. 1991 yil 109 b.
- 33.Hoshimov M. , Hoshimov J. “Hisor yon bagriga sayohat”, Toshkent “Fan” T.: 1979 yil 35 b.
- 34.Shorahimov Sh. “Afrosiyobga sayyohat”, “Yosh gvardiya” T.: 1979 yil 32 b.
- 35.Hilqorova T., Tulenova X., “Turizm va uni o`qitish metodikasi” T.: “Iqtisod - moliya” 2007, 128 b.
- 36.Egamov B. “Ta’limda tog turizmi”. Toshkent “Ilm ziyo” 2009 yil 159 b.
- 37.Egamov B., Abdusattorova G. “Sayohatni tashkil qilish” Toshkent “Ilm ziyo” 2009 yil 159 b.
- 38.IIquls V. “O`rta Osiyo gidrografiya”. Toshkent “Fan” . 1967 yil.

Internet ma’lumotlari:

- 39.www.ziyonet.uz
[www: press – service. uz.](http://www.press-service.uz)
40. [www: mfa. uz.](http://www.mfa.uz)
41. <http://www.pacademy.edu.b>
42. <http://www.rags.ru/kaf/fi..>
43. [www. marifatars-inform.uz.](http://www.marifatars-inform.uz) ma’rifat jurnali
- 44.[www/ natlub.uz](http://www.natlub.uz)
45. respublika uzbekistan [http:// www. gov.uz](http://www.gov.uz)
46. uznu [http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)
47. elektronnaya biblioteka [http:// orel.rsl.ru](http://orel.rsl.ru)

1. Амалий машғулот

Мавзу: Ўзбекистон табиий географиясининг ўрганиш объекти.

Вақти – 2 соат		Талабалар сони: 25-30 нафар	
Ўқув машғулотининг шакли		Билимларни кенгайтириш ва чуқурлаштириш бўйича амалий машғулот	
Семинар машғулотининг режаси		1. Ўзбекистоннинг жойлашиши ва географик ўрни 2. Ўзбекистон чегаралари.	
Ўқув машғулотининг мақсади: талабаларни Ўзбекистон табиий географияси фани бўйича эгаллагн билимларини кенгайтириш ва чуқурлаштириш ҳамда талабаларин илмий дунёқарашини кенгайтириш, нутқ маданиятини ўстириш, дарслик атлас ва ёзувсиз карта устида мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш			
Педагогик вазифалар: - Мавзу бўйича билимларни кенгайтириш, мустаҳкамлаш; - Билимларни таққослашшни, умумлаштиришни, таҳлилни тизимлаштириш кўникмасини ҳосил қилиш; - Коммуникация, гуруҳда ишлаш кўникмаларни ривожлантириш.		Ўқув фаолиятининг натижалари: Талаба: - Талабаларни машғулот мавзуси , мақсади, бориши ва мустақил бажариладиган ўқув топшириқлари билан таништириш	
Ўқитиш услуби ва техникаси		Блиц-сўров, биргалида ўқиймиз, кластер, мунозара	
Ўқитиш воситалари		Машғулот ишланмаси , ўқув қўлланмаси, проектор, маркер, доска.	
Ўқитиш шакли		Индивидуал, фронтал, гуруҳларда ишлаш.	
Ўқитиш шарт-шароити		Техник таъминланган, гуруҳларда ишлаш учун мўлжалланган аудитория	

Амалий машғулотининг технологик картаси

Босқичлар, вақти	Фаолият мазмуни	
	Ўқитувчи	Талаба
1-босқич. Кириш (10 мин.)	1.1. Мавзуни, мақсади, режадаги ва ўқув натижаларини эълон қилади, уларнинг аҳамиятини ва долзарблигини асослайди. Машғулот ҳамкорликда ишлаш технологиясини қўлланган ҳолда ўқитишни маълум қилади. 1.2. Мавзу бўйича асосий тушунчаларга таъриф беришни таклиф қилади ва шу асосда блиц-сўров ўтказади (1-илова).	1.1.Эшитади ва мавзуни ёзади. 1.2. савооларга жавоб беради.
2-босқич. Асосий (60 мин.)	2.1. Талабаларни 5та кичик гуруҳга ажратади. Ўқув топшириқларини тарқатади (2-илова). 2.2. Гуруҳларда ҳамкорлик асосида ишлаш усули қоидалари билан таништиради (4-илова). Баҳолаш мезонлари ҳамда вазифаларни бажаришда ўқув материаллари (маъруза матни, ўқув қўлланма)дан фойдаланиш мумкинлигини таъкидлайди. Ўқув натижаларини эслатади. Гуруҳларда ишларни баҳолашни эълон қилади 2.3. Тайёргарликдан кейин тақдимотни бошлангани эълон қилинади. 2.4. Талабалар жавобини шархлайди, хулосаларга эътибор беради, аниқлик киритади, гуруҳлар фаолиятига умумий балл беради. 2.5. Ўзлаштириш даражасини аниқлаш учун назорат саволларни беради (3-илова).	2.1 5та кичик гуруҳга бўланадилар ва ўқув топшириғи билан танишадилар. 2.2. Баҳолаш мезонлари билан танишади, топшириқни гуруҳга тақсимлайди, умумий маърузани шакллантиради. 2.3. Натижаларни презентация қилади, назорат саволларига жавоб беради. Қолган иштирокчилар тақдимотни тўлдирадилар. 2.5. Тестнинг жавобларини белгилашади.
3-босқич. Якуний (10 мин.)	3.1. Машғулотга якун ясайди. Талабалар диққатини асосий жиҳатларга қаратади. Фаол иштирок этган талабаларни рағбатлантиради. 3.2. Мустақил иш учун вазифа беради: “Амалий топшириқларни якунига етказиш”.	3.1. Тинглайдилар, аниқлаштирадилар. 3.2. Мустақил иш учун вазифани ёзиб оладилар

Блиц-сўров саволлари

1-илова

Географик ўрни
Табиий
Чегаралари
Шимолий нуқта
Ўрта Осиё харитаси
Масофа
Объект

Гуруҳлар учун топшириқлар

2-илова

1-гуруҳ

1. Ўрта осиё картасини таҳлил қилиб, ўзбекистоннинг жойлашган ўрнини аниқланг.

2-гуруҳ

1. Ўзбекистон табиий картаси ёрдамида чекка нуқталарини аниқланг ва ёзувсиз картада белгиланг ва чегаралар узунлигини аниқланг.

3-гуруҳ

1. Тошкентдан экваторгача, шимолий ва жанубий қутбгача бўлган масофани карта масштаби ёрдамида даража ва километрга ҳисобланг.

4-гуруҳ

1. Ўзбекистоннинг энг чекка шимолий нуқтаси билан жанубий чека нуқтаси орасидаги фарқни аниқланг ва ўша иккита нуқта орасидаги масофа неча км бўлишини ҳисобланг.

5-гуруҳ

1. Ўрта Осиё давлатлари ва Ўзбекистон майдонини катталигини қиёсловчи айлана диаграмма тузинг.

«БИРГАЛИКДА ЎҚИЙМИЗ» ТЕХНИКАСИ

4-илова

Биргаликда ўқиш: ўқув гуруҳи кичик гуруҳларга бўлинади. Ҳар бир кичик гуруҳ ўрганилаётган мавзунинг маълум бир соҳасида эксперт бўлади ва бошқаларни ўргатади.

Ҳар бир гуруҳнинг мақсади бошқа барча гуруҳлар иштирокчилари мавзу саволларини тўла ҳажмда эгаллаб олишдан иборат.

«Биргаликда ўқиймиз» техникасидан фойдаланган

ҳолда гуруҳларда ишни ташкил этиш жараёнининг тузилиши

1. Билим даражасига қараб 3-5 кишидан иборат бўлган ҳар хил турдаги гуруҳлар тузилади.



2. Ҳар бир гуруҳга *битта* топшириқ берилади – умумий мавзунинг бир қисми, унинг устида бутун ўқув гуруҳи иш олиб боради ҳамда таянчлар – **эксперт варақлари** – тақдим этилади.



3. Ҳар бир гуруҳ ичида умумий топшириқ тақсимланади.



4. Ҳамма якка *тартибдаги топшириқни* бажаради.



5. Барча гуруҳ аъзоларининг мини-маърузалари тингланади. Умумий натижа (бутун эксперт варағи бўйича саволлар жавоби)ни шакллантиради ва уни тақдимотга тайёрлашади.



6. Спикер ёки гуруҳ барча аъзолари биргаликда бажарган иш натижаларини тақдимот этишади.

Гуруҳларда ишлаш қоидаси

Шеригингизни диққат билан тингланг.

Гуруҳ ишларида ўзаро фаол иштирок этинг, берилган топшириқларга масъулият билан ёндашинг.

Агар ёрдам керак бўлса, албатта мурожаат қилинг.

Агар сиздан ёрдам сўрашса, албатта ёрдам беринг.

Гуруҳлар фаолиятининг натижаларини баҳолашда ҳамма иштирок этиши шарт.

Аниқ тушунмоғимиз лозим:

- Бошқаларга ўргатиш орқали ўзимиз ўрганамиз;
- Биз битта кемадамиз: ёки биргаликда сузиб чиқамиз, ёки биргаликда чўкиб кетамиз.

Эксперт гуруҳлар иш натижаларини баҳолаш мезонлари

Мезонлар	Макс. балл	Гуруҳ натижаларини баҳолаш				
		1	2	3	4	5
Ахборотнинг тўлиқлиги	3 б.					
Ахборотнинг график шаклда ифода этилиши	1 б.					
Гуруҳнинг фаоллиги	1 б.					
Балларнинг максимал суммаси, жами	5 б.					

2.Амалий машғулотининг ўқитиш технологияси
Мавзу:Фарғона.

2-Илова

Вақти – 2 соат		Талабалар сони: 25-30 нафар
Ўқув машғулотининг шакли	Яқунловчи мунозара-дарс	
Амалий машғулотда муҳокама қилиш учун саволлар	1. Фарғона табиий – географик округининг географик ўрни, геологик тараққиёти, рельефи ва фойдали қазилмалари	
Ўқув машғулотининг мақсади: талабаларнинг Фарғона табиий географик округи ҳақидаги маърузада эгаллаган билимларни кенгайтириши ва мустаҳкамлаш. Уларни дарслик атлас ва ёзувсиз карта устида мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириши.		
Педагогик вазифалар: - Мавзу бўйича билимларни кенгайтириш ва мустаҳкамлаш; - Билимларни таққослашни, таҳлилни тизимлаштириш кўникмасини ҳосил қилиш; - Ўз фикрини шакллантириш ва билдириш жараёнини ташкил қилиш; - Коммуникация, гуруҳда ишлаш кўникмаларини ривожлантириш.	Ўқув фаолиятининг натижалари: Талаба: - Талабаларни машғулот мавзуси , мақсади, бориши ва мустақил бажариладиган ўқув топшириқлари билан таништириши. - Талабаларни кичик гуруҳларга ажратиб гуруҳлар томонидан белгиланган ва ўқув топшириқларини мустақил равишда, ифатли бажаришга эришиши. - Ўқув материални яхлит ҳолда қайта ишлаб чиқилишини амалга ошириши	
Ўқитиш услуби ва техникаси	Хамкорликда ўқитиш (3х4) техникаси, мунозара, тақдимот	
Ўқитиш воситалари	Ўқув қўлланмалари, маъруза матнлари, проектор, маркер, скоч, қоғоз, конспектлар	
Ўқитиш шакли	Индивидуал, фронтал ва гуруҳларда ишлаш.	
Ўқитиш шарт-шароити	Техник таъминланган, гуруҳларда ишлаш учун мўлжалланган аудитория.	

Семинар машғулотининг технологик картаси

Босқичлар, вақти	Фаолият мазмуни	
	Ўқитувчи	Талаба
1-босқич. Кириш (10 мин.)	1.1. Ўқув машғулотининг мақсади, режалаштирилган натижаси ва уни ўтказиш тартибини айтади режасини айтади. 1.2. Амалий машғулоти мунозара тарзида ўтишини маълум қилади ва мунозара қоидалари билан таништиради.	1.1.Диққат билан тинглайдилар ва ёзиб оладилар.
2-босқич. Асосий (60 мин.)	2.1. Талабаларни мунозара саволлари билан таништиради: - Ёзувсиз картада Фарғона табиий географик округини чегараланг , табиий картасини тушуриг - Фарғона табиий географик округининг чекка нукталарини географик координаталарини аниқланг ва улар орасидаги масофани километр ва даража аниқланг. -Фарғона табиий географик округининг табиий картасини таҳлил қилиб округ худудида учровчи рельеф шакллари жадвалини ишлаб чиқинг - Қўқон –ўзган ҳамда Фарғона –Наманган шаҳарлари орқали ўтувчи чизик бўйлаб гипсометрик профил чизинг .профилни табиий карта билан таққослаб , округ ғарбдан шарққа , шимолдан жанубга қандай ўзгариб боришини тағлил қилинг. - Фарғона табиий – географик округининг табиий картасини таҳлил қилиб округда учровчи фойдали қазилмалар жадвалини тузинг. 2.2. Талабалар мунозарасини ташкил этади. Хар бир жавобнинг мазмунига ва мантиқийлигига эътибор беради. Саволлар беришни таклиф этади. Турли нуктаи назарлар тингланади ва умумлаштиради. Хар бир савол муҳокамаси умумий хулоса билан тугайди. 2.3. Талабаларни 4 гуруҳга ажратади ва топшириқни таркатади.(1-илова) Гуруҳда ишлаш тартибини эслатади, ўзаро баҳолаш мезонларини айтиб ўтади (2,3 - илова). Тушунмаган топшириқларга аниқликлар киритади. 2.4. Такдимотни ташкил этади, аниқликлар киритади.	2.1 Эшитадилар ва жавобларни тайёрлайдилар. 2.2. Талабалар саволларга ўз нуктаи назарларини билдирадилар, кўшимчалар қиладилар ва саволлар берадилар. 2.3. Гуруҳларда ишлайди, такдимот тайёрлайди. Гуруҳ ёндошувини гуруҳ сардори такдимот қилади. Бошқа талабалар тўлдиради ва бошқа гуруҳларига савол беради. Ёзиб оладилар

3-босқич. Якуний (10 мин.)	3.1. Дарсга якун ясайди, талабаларни баҳолайди. 3.2. Мустақил иш учун вазифа беради: Амалий топшириқларни ниҳоясига етказиш.	Эшитадилар, вазифани ёзиб оладилар.
---	---	-------------------------------------

Топшириқ

1-илова

**Ўқув курсини ўрганиш давомида эгаллаган билимларингиз асосида
жадвалини тўлдилинг**

Тушунчалар	Мазмуни
Табиий –географик	
Иқлими	
Ички сувлари	
Географик координатлари	
Шимолий	
Жанубий	

Изоҳ: ушбу топшириқ 3x4 технологиясини қўллаган ҳолда қўлланилади

3x4 технологияси

2-илова

**3x4 технологиясидан фойдаланган ҳолда гуруҳларда ишни ташкил этиш
жараёнининг тузилиши:**

- ✓ Ўқитувчи талабаларнинг умумий сонига қараб, 3-5 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади (кичик гуруҳлар сони 4 ёки 5 та бўлгани мақсадга мувофиқ);
- ✓ Ўқитувчи талабаларни машғулотнинг мақсади ва ўтказилиш тартиби билан таништиради ва ҳар бир кичик гуруҳга коғознинг юқори қисмида ёзуви бўлган варақларни таркатади;
- ✓ Ўқитувчи кичик гуруҳ аъзоларни тарқатма материалда ёзилган асосий фикрни фақат учта фикр, яъни учта сўз ёки сўзлар бирикмаси, ёки учта гап билан давом эттиришлари мумкинлигини уқтиради ва буни амалга ошириш учун аниқ вақт белгилайди;
- ✓ Гуруҳ аъзолари биргаликда тарқатма материалда берилган фикрни ёзиб давом эттирадилар;
- ✓ Вазифа бажарилгач, гуруҳ аъзолари ўринларидан туриб соат мили йўналиши бўйича жойларини ўзгартирадилар, яъни 1-гуруҳ 2-гуруҳнинг, 2-гуруҳ 3-гуруҳнинг, 3-гуруҳ эса 4-гуруҳнинг (бошқа кичик гуруҳлар бўлса, шу тариқа) ўрнига ўтадилар;
- ✓ Янги жойга келган гуруҳ аъзолари шу ерда қолдирилган тарқатма материалдаги фикрлар билан танишиб, унга яна янги учтадан ўз фикрларини ёзиб қўядилар;
- ✓ Гуруҳ аъзолари яна юқоридаги каби жойларини ўзгартирадилар, шу тариқа кичик гуруҳлар ўз жойларига қайтиб келгунларига қадар жойларини алмаштириб, тарқатма материалларига ўз фикрларини қўшиб борадилар;
- ✓ Ўз жойларига қайтиб келган кичик гуруҳлар тарқатма материалда тўпланган барча фикрларни диққат билан ўқиб, уларни умумлаштирган ҳолда битта яхлит таъриф ёки қоида ҳолатига келтирадилар;
- ✓ Ҳар бир кичик гуруҳнинг муаллифлик таърифлари ёки қоидаларини гуруҳ аъзоларидан бири тақдимот қилади;
- ✓ Ўқитувчи кичик гуруҳлар томонидан берилган таърифлар ёки қоидаларга изоҳ бериб, уларни баҳолайди, сўнгра машғулотни якунлайди.

(балларда)

3-илова

Гуруҳ	Маълумотларни тўғри етказиш	Назарий тўғри асосланганлиги	фаоллик	Жами
	2	2	1	5
1				
2				
3				
4				

Таянч сўзлар луғати

№	Ўзбекча сўзлар	Русча сўзлар	Инглизча сўзлар
1.	Hudud	Территория	Territory
2.	Turizm	Туризм	Tourism
3.	Geoeкологиya	Геоэкология	Geoeology
4.	Geomorfologiya	геоморфология	Geomorphology
5.	Geologiya	Геология	Geology
6.	Turizm	Туризм	Tourism
7.	Ob'ekt	Объект	Object
8.	Resurs	ресурс	Resource
9.	Maydon	Площадь	Area
10.	Chegara	Граница	Border
11.	Tabiiy	Естественный	Natural
12.	Suv	Вода	Water
13.	Shamol	ветер	Wind
14.	Harorat	Температура	Temperature
15.	Harakat	Движение	Motion
16.	Tog	Гора	Mountain
17.	Zilzila	землетрясение	Earthquake
18.	Kenglik	Пространство	Space
19.	Rel'ef	рельеф	Relief
20.	Daryo	река	River
21.	Turistik baza	Туристическая база	Tourist Camp
22.	Sanatoriya	Санатория	Sanatorium
23.	Kurort	Курорт	Resort
24.	Iqlim	Климат	Climate
25.	Ichki suvlar	Внутренние воды	Inland waters
26.	Organik dunyosi	Органический мир	Organic world
27.	Sovuq	Холодно	Cold
28.	Nam havo	Влажная погода	Wet weather
29.	Qor	Снег	Snow
30.	Yomgir	Дождь	Rain
31.	yer osti suvlari	Подзеиние воды	Groundwater

32.	Dala	Поле	Field
33.	Sugorish	Оращение	Irrigation
34.	Suv ombori	Водохранилище	Reservoir
35.	Suv ta'minoti	Водоснабжение	Water supply
36.	Xayvonot dunyosi	Животный мир	Animal word
37.	O'simliklari	Растение	Plant
38.	Kanal	Канал	Channel
39.	Vodiy	Долина	Valley
40.	Dala amaliyoti	Учебно-полевая практика	Educational field practic
41.	Ekskursiya	Экскурсия	Tour
42.	So`qmoq	тропинка	Footpath
43.	Tepalik	Подъем	Rise
44.	Cho`qqi	Вершина	Top
45.	Jarlik	Пропасть	Abyss
46.	Marshrut	Маршрут	Route
47.	Mehmonxona	Гостиница	Hotel
48.	Davolanish	Лечение	Treatment
49.	Innovatsiya	Инновация	Innovation
50.	Texnologiya	технология	technology